



Trening ishtirokchilari uchun

USLUBIY QO'LLANMA

"Saylovlar va gender: siyosatda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashning xalqaro va milliy amaliyotlari"

Trening ishtirokchilari uchun

USLUBIY QO‘LLANMA

“Saylovlar va gender: siyosatda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashning xalqaro va milliy amaliyotlari”

“Saylov va gender: siyosatda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xalqaro va milliy amaliyotlar” uslubiy qo‘llanmasi

© Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining (BMTTD) O‘zbekistondagi vakolatxonasi

Muallif (agar matnda boshqa muallif ko‘rsatilmagan bo‘lsa): Denis A. S., BMTTDning O‘zbekistondagi vakolatxonasi maslahatchisi

Taqrizchi: Baratashvili G., BMTTDning O‘zbekistondagi vakolatxonasining saylovlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bosh texnik maslahatchisi

Umumiy tahrirda: Rahimova G. A., O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining doimiy a‘zosi

Dizayn: Xidoyatov R.

Illustratsiyalar dizayni: Freepik (www.freepik.com)

Ushbu qo‘llanma notijorat maqsadlarda qo‘llanilganda, uning manbasi sifatida BMTTDning O‘zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi ko‘rsatilishi shart. Boshqa har qanday foydalanish uchun BMTTDning O‘zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi vakili bilan yozma ravishda kelishilishi kerak. Materiallardan qisman yoki to‘liq, qog‘ozda yoki elektron shaklda, shu jumladan, Internetda foydalanishda BMTTDning O‘zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasini dastlabki noshir sifatida ko‘rsatish talab etiladi.



MUNDARIJA

Nizomxo'jayev Z.M. Demokratik islohotlarning mantiqiy davomi.....	4
Rahimova G.A. O'zbekiston ayollarining siyosiy hayotdagi va saylov jarayonlaridagi ishtiroki kengaymoqda	12
Kirish: o'quv qo'llanma haqida	17
1-bob. Saylov va gender tenglik sohasidagi xalqaro majburiyatlar	19
2-bob. Saylov tizimi shaklidagi tartib-qoidalar to'plami.....	23
3-bob. Gender kvotalar va ularni turli saylov tizimlari bilan uyg'unlashtirish xususiyatlari.....	30
4-bob. Genderga yo'naltirilgan faoliyat kesimida saylovlarni rejalashtirish sifatidagi saylov davri	37
5-bob. Dunyodagi xotin-qizlarning holati: statistika	46
6-bob. Siyosatda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha eng yaxshi xalqaro tajribalar	52
7-bob. Ruanda va Hindiston: gender kvotalarining siyosatga ta'siriga misollar.....	58
Ilovalar	62
1-ilova. Qo'shimcha resurslar va adabiyotlar ro'yxati	62
2-ilova. 672-ilova. Dunyo mamlakatlari parlamentlari yagona yoki quyi palatasida xotin-qizlar soni bo'yicha Parlamentlararo assotsiatsiyasining reytingi	63
3-ilova. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro hujjatlar	69



DEMOKRATIK ISLOHOTLARNING MANTIQUIY DAVOMI

Bu yil davlat mustaqilligining 30 yilligi keng nishonlanayotgan mamlakatimizda inson, uning huquqlari, erkinlik va qonuniy manfaatlari eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Rivojlangan demokratik davlat, erkin va mustaqil, farovon jamiyat qurishdek g'oyat muhim jarayonda milliy saylov tizimini yanada demokratlashtirish, saylov qonunchiligi va amaliyotini umume'tirof etilgan xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish, fuqarolarning saylov huquqlarini yanada keng va to'la ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Izchil o'zgarishlar

Shu kunlarda mamlakatimizda katta siyosiy tadbir – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga qizg'in tayyorgarlik ko'rilmogda. Bu boradagi barcha jarayonlar ochiq, oshkora, milliy saylov qonunchiligi asosida va qonunchilikda belgilangan muddatlarda o'tkazilmogda.

Joriy yilning 8-fevralida qabul qilingan qonun bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgartirishga binoan mamlakatimizda Prezident saylovi oktabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkazilishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 23-iyul kuni bo'lib o'tgan navbatdagi majlisida ana shu yirik siyosiy jarayonga start berildi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etgan majlisda Markaziy saylov komissiyasi 2021-yil 24-oktabrni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi kuni deb belgiladi. Saylov kampaniyasi 23-iyuldan boshlanishi e'lon qilindi.

O'z oldiga mamlakat taraqqiyotini yangi, yanada yuqori bosqichga ko'tarishdek buyuk maqsadni qo'ygan yangi O'zbekistonda Prezident saylovi yangilangan milliy saylov qonunchiligi, umume'tirof etilgan xalqaro standartlarga mos, demokratik tamoyillar asosida, ochiq va oshkora o'tkazilishi majlisda alohida ta'kidlandi.

2016-yil 4-dekabrda Prezident saylovidan keyingi davrda xalqimiz, mamlakatimiz hayotida va milliy saylov qonunchiligimizda katta o'zgarishlar yuz berdi.

Nufuzli xalqaro ekspertlar ta'kidlashganidek, 2016-yildan O'zbekiston o'zining sifat jihatidan yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'ydi. Yuksalish jarayonida inson huquqlarini keng ta'minlash, siyosiy-huquqiy hayotni va ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirish, jamiyatni demokratlashtirish kabi masalalar islohotlarning ustuvor yo'nalishlariga aylandi. Milliy saylov

qonunchiligini izchil takomillashtirish hamda saylovlarni o'tkazish amaliyoti yangi yuksalish pog'onasiga ko'tarildi.

2019-yilning 25-iyunida qabul qilingan Saylov kodeksi buning yaqqol dalilidir. Mazkur Kodeks ilgari amalda bo'lgan saylovga oid beshta qonun va o'nlab qonunosti hujjatlarini o'zida mujassam etgan. O'tgan saylovlarda xalqaro kuzatuvchilar tomonidan berilgan maqbul tavsiyalarni milliy saylov qonunchiligi va amaliyotiga tatbiq etishga so'nggi yillarda e'tibor oshdi.

Malakatmizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar soni yana bittaga ko'payib, partiyalararo raqobat sezilarli darajada kuchaydi.

Joriy yilda o'tadigan saylovda konstitutsiyaviy normalar va xalqaro saylov standartlariga binoan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davriylik prinsipi asosida saylanishi ta'minlanadi.

Bu O'zbekiston Respublikasining umume'tirof etilgan xalqaro demokratik saylov tamoyillariga sadoqatining amaldagi yana bir dalilidir.

Xalqaro saylov standartlari asosida

Prezident saylovi haqida tahlilchilar so'z yuritar ekanlar, uning avvalgi saylovlardan tubdan farq qiladigan ayrim jihatlariga e'tibor qaratmoqdalar.

Avvalo, Prezident saylovi ilk bor O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi asosida bo'lib o'tadi.

2019-yilda Parlament va mahalliy kengashlarga o'tkazilgan saylovlardagi huquqni qo'llash amaliyoti hamda xorijiy kuzatuvchilar tomonidan berilgan tavsiyalar asosida joriy yil 8-fevral va 31-mayda qabul qilingan qonunlar bilan Saylov kodeksi va boshqa qonunlardagi saylovga oid normalar yanada takomillashtirildi. Jumladan:

- xorijda istiqomat qilayotgan O'zbekiston fuqarolarining konsullik hisobida bo'lishi yoki bo'lmasligidan qat'i nazar, saylovchilar ro'yxatiga kiritilishi hamda ular yashayotgan yoki ishlayotgan joyda ovoz berish imkoniyatining yaratilishi belgilandi;
- qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida, harbiy qismlarda tashkil etilgan saylov uchastkalariga kuzatuvchilarning tashrif mexanizmlari soddalashtirildi;
- saylov komissiyalari a'zolariga ish haqi va kompensatsiya to'lanishiga oid qoidalar yanada mustahkamlandi;
- saylov komissiyalari zimmasidagi nomzodlarning saylovchilar bilan uchrashuvlarini tashil etishga oid vazifa bekor qilindi;
- saylovoldi tashviqoti davrida davlat resurslaridan foydalanish taqiqlandi;
- siyosiy partiyalarga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan mablag'lardan foydalanishning shaffofligini ta'minlashning yangi mexanizmlari joriy etildi;

- saylovchilar bilan uchrashuvlar kabi ommaviy tadbirlar o'tkazish uchun ruxsatnoma olish o'rniga xabardor qilish mexanizmi belgilandi;

- sudlar va saylov komissiyalariga takroriy shikoyatlar tushishi, ular tomonidan bir-biriga zid qarorlar chiqarilishining oldini olish maqsadida, saylov komissiyalarining harakatlari va qarorlari ustidan shikoyatlarni endi faqat sudda ko'rib chiqish joriy etildi.

Prezident saylovi O'zbekistonda siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlarning mantiqiy davomidir.

Bu yilgi saylov mamlakatimiz taraqqiyotining beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar izchillik bilan hayotga tatbiq etilayotganligining yorqin ifodasi bo'ladi.

Tizimli ishlar samarasi

Markaziy saylov komissiyasining 2021-yil 14-apreldagi qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha asosiy tadbirlar dasturiga binoan saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni demokratik talablar darajasida o'tkazish uchun tegishli davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda, pandemiya tufayli yuzaga kelgan sharoitni hisobga olgan holda, keng ko'lamli ishlar bajarildi.

Qayd etish joizki, jahonda pandemiya sababli murakkab vaziyat vujudga kelganidan buyon Markaziy saylov komissiyasi tomonidan xorijiy davlatlarda saylovlarni o'tkazish davrida qo'llanilgan xalqaro tajribani o'rganish va maqbul jihatlarni milliy saylov jarayonlariga joriy etish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Komissiyamiz a'zolari va ekspertlari ishtirokida qator xalqaro onlayn konferensiyalar va seminarlar uyushtirilib, pandemiya sharoitida saylov o'tkazish borasidagi xalqaro tajriba batafsil muhokama qilindi.

O'nga yaqin xorijiy davlatda o'tgan saylovlarda xalqaro kuzatuvchi sifatida ishtirok etgan ekspertlarimiz muammoning yechimlarini bevosita o'rgandilar.

Hozir mamlakatimizda saylov tashkilotchilari va saylovchilarning sog'ligini koronavirus xavfidan ishonchli himoya qilgan holda saylov o'tkazish imkoniyatlari mavjud. Eng muhimi, aholini yalpi emlash ishlari ko'lamli tobora kengaymoqda. Saylov tashkilotchilari ham birinchilar qatorida emlanayotir.

O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda pandemiya sharoitida saylov o'tkazishning asosiy mexanizmlari va tartiblari kelishib olindi. Jumladan, Markaziy saylov komissiyasining Pandemiya sharoitida Prezident saylovini o'tkazish bo'yicha alohida yo'riqnomasi ishlab chiqilmoqda.

Pandemiya sharoitida saylov komissiyalari a'zolari va saylovchilarning salomatligi va xavfsizligini ta'minlash uchun shaxsiy himoya vositalari hamda dezinfeksiyalovchi vositalar sotib olish uchun tegishli tartibda mablag'lar ajratiladi.

Teng va keng imkoniyatlar

Mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarning saylov huquqlarini ta'minlashning huquqiy-tashkiliy asoslari va samarali mexanizmlari to'la shakllantirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Nogironlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyani ratifikatsiya qildi. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonun joriy yilning 15-yanvaridan kuchga kirdi.

Prezident sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish jarayonlarida nogironligi bo'lgan shaxslarning saylov huquqlarini ta'minlashga doir masalalar doimiy e'tiborda.

Markaziy saylov komissiyasi bilan O'zbekiston Nogironlar jamiyati, O'zbekiston Ko'zi ojizlar jamiyati va O'zbekiston Karlar jamiyati o'rtasida shu yil may oyida imzolangan kelishuvlar shunday maqsadga xizmat qiladi. Hujjatlarda nogironligi bo'lgan fuqarolarning saylov huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq masalalarni hal etish, saylovda teng imkoniyatlar yaratish bo'yicha hamkorlikda ish olib borish borasida vazifalar belgilandi. Jumladan, imkoniyati cheklangan saylovchilarning, zaruratga qarab, yashash joyida ovoz berishi tashkil etiladi. Saylov kampaniyasiga oid teledasturlarda imo-ishora tili va subtitrlardan foydalanish yo'lga qo'yiladi.

Huquqiy va uslubiy takomil

O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi, Byudjet kodeksi, "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha xarajatlar smetasi tasdiqlandi.

Birinchi bor saylov smetasi saylovdan to'rt oy oldin tasdiqlandi va e'lon qilindi. Bu saylov bilan bog'liq xaridlarni belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshirish imkonini beradi. Tasdiqangan smetaga asosan saylovga tayyorgarlik ko'rish tadbirlarini moliyalashtirish ishlari boshlandi.

Saylov qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalardan hamda avvalgi saylovlarda xalqaro kuzatuvchilar tomonidan berilgan tavsiyalardan kelib chiqib, Markaziy saylov komissiyasining amaldagi ayrim nizom va yo'riqnomalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi, yangilari tasdiqlandi.

Zamonaviy texnologiyalar sharofati

Komissiyamiz tomonidan shu yil 27-aprelda tasdiqlangan Saylov komissiyalari a'zolari malakasini oshirishni tashkil etish konsepsiyasiga ko'ra barcha darajadagi saylov komissiyalari a'zolariga nomzodlarning bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan ishlar ko'p bosqichli zamonaviy "kaskad" texnologiyasi asosida tashkil etilmoqda.

Bu yilgi Prezident saylovida 14 saylov okrugi va 10 ming 776 saylov uchastkasi tuzilishi rejalashtirilgan. Shu vaqtgacha 56 nafar respublika va 824 nafar hududiy trenerlar guruhi shakllantirildi. Hozirgacha ushbu trenerlar tomonidan 33 mingga yaqin saylov komissiyalari raisi, rais o'rinbosari va kotiblikka nomzodlarning bilim va malakasi oshirildi.

Saylovni tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha seminar-treninglarda jami 130 ming nafarga yaqin saylov komissiyalari a'zolari o'z bilimi va ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Seminarlarda zamonaviy interfaol usullar – videodarslar, video-qo'llanmalar va infografik materiallardan samarali foydalanilmoqda. Mashg'ulotlar saylov qonunchiligi bo'yicha yetakchi ekspertlar tomonidan o'tkazilayotganligi bunga alohida e'tibor qaratilayotganligining isbotidir.

Shuningdek, Davlat boshqaruvi akademiyasi va Toshkent davlat yuridik universiteti bilan hamkorlikda saylov qonunchiligi va amaliyoti bo'yicha o'quv-amaliy qo'llanmasi o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida jami qariyb 34 ming nusxada nashr etildi va hududlarga yetkazildi. Saylov ishtirokchilari uchun bir qator uslubiy qo'llanmalar va eslatmalar tayyorlandi.

“Saylovchilar ro'yxatida bormisiz?”

Milliy saylov tizimiga Saylov jarayonini boshqarish axborot tizimi va Saylovchilarning yagona elektron ro'yxati 2019-yili parlamentga va mahalliy kengashlarga o'tgan saylovlarda butun mamlakatimiz bo'ylab muvaffaqiyatli joriy etildi.

Mazkur tizimning qonunchilik darajasida – Saylov kodeksiga binoan tartibga solinishi saylovchining yagona ro'yxatga kiritilishini va “bir saylovchi — bir ovoz” tamoyili amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Endilikda u avvalgi saylovlarda ortirilgan tajribadan kelib chiqib, zamon talablari darajasida yanada takomillashtirilmoqda.

Hozirgacha qariyb 21 million nafar saylovchi yagona elektron ro'yxatga kiritildi. Markaziy saylov komissiyasi saytida “Saylovchilar ro'yxatida bormisiz?” xizmati ishga tushirildi.

Uchastka saylov komissiyalari a'zolarini Saylov jarayonini boshqarish axborot tizimi va Saylovchilarning yagona elektron ro'yxati bilan ishlashga o'rgatish bo'yicha maxsus o'quv reja va dastur ishlab chiqildi. Yaqin kunlarda 30 nafar respublika va 797 nafar hududiy trener tomonidan 33 mingga yaqin axborot tizimi operatorini bosqichma-bosqich tayyorlash jarayonlari boshlanadi.

Raqamlar zamiridagi ishonch

Mamlakatimiz fuqarolarining tafakkurida bo'layotgan ulkan o'zgarishlar natijasida saylovchilarning talablari va islohotlarga daxldorlik tuyg'usi ham oshib bormoqda. Ular nafaqat siyosiy partiyalar, shuningdek saylov komissiyalari oldiga ham qat'iy talablarni ilgari surmoqda.

Yaqinda “Ijtimoiy fikr” nodavlat jamoatchilik fikrini o'rganish markazi o'tkazgan so'rovlar natijasi buni yaqqol ko'rsatdi. So'rovda ishtirok etganlarning 90 foizga yaqini “2021-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tishini bilasizmi?” degan savolga ijobiy javob berdi.

Bu raqamlar nimani anglatadi?

Avvalo, fuqarolarning siyosiy-huquqiy ongi va xabardorlik darajasi muttasil o'sib borayotganining;

ikkinchidan, siyosiy partiyalarning saylovoldi platformalari amalda rang-baranglik kasb etib, jamiyat va davlat hayotidagi muhim muammolarni yechishga yo'naltirilayotganining;

uchinchidan, mamlakatimizda ochiqlik, oshkoralik, adolat va tenglik tamoyillarini ta'minlashga amalda doimiy e'tibor qaratilayotganining tasdig'idir.

Vazifalar aniq

Markaziy saylov komissiyasining majlisida saylov qonunchiligida mustahkamlab qo'yilgan me'yorlarning o'z muddatida va samarali ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazish bo'yicha kalendar rejasi tasdiqlandi.

Yetti yo'nalish va 51 banddan iborat kalendar rejada Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tegishli davlat organlari, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda izchil va kundalik amalga oshiriladigan muhim vazifalar belgilandi.

Saylov okruglari va uchastkalarini hamda okrug va uchastka saylov komissiyalarini tuzish, saylovchilarning yagona elektron ro'yxatini yuritish, saylov kampaniyasini moliyalashtirish, siyosiy partiyalarning, prezidentlikka nomzodlar va ularning ishonchli vakillarining saylovdagi ishtirokini ta'minlash, saylovoldi tashviqoti va saylov jarayonlarini yoritish, kuzatuvchilarning saylovdagi ishtirokini ta'minlash, ovoz berishni o'tkazish va saylov natijalarini aniqlash shular jumlasidandir.

Daxldorlik tuyg'usi

Saylovga tayyorgarlik ko'rishdagi eng muhim vazifalardan biri – fuqarolarga saylov to'g'risida to'la, ishonchli va tezkor axborotni yetkazish, aholida saylov oddiy, shu bilan birga, muhim fuqarolik burchi ekanligi haqidagi fikrni shakllantirish, befarqlik kayfiyatidagi shaxslarni saylov huquqini faol amalga oshirishga chorlash, ularga saylov jarayonlarida ishtirok etishdan har bir fuqaro va jamiyat manfaatdor ekanligini singdirish hamda mamlakat tarraqiyotiga daxldorlik hissini uyg'otishdan iborat.

Bu vazifani bajarishda yaqinda Oliy Majlis palatlari tomonidan qabul qilingan "Aholining elektoral madaniyatini yuksaltirish bo'yicha milliy harakatlar dasturi"ning ijrosi katta ahamiyat kasb etadi.

Markaziy saylov komissiyasi va barcha darajadagi saylov komissiyalari Prezident sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish davrida o'z ishini qonuniylik, mustaqillik, xolislik, ochiqlik, oshkoralik va shaffoflik tamoyillariga to'la amal qilgan holda tashkil etadi.

Shu maqsadda Markaziy saylov komissiyasi bilan mamlakatimizdagi yetakchi ommaviy axborot vositalari o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi kampaniyasini yoritish bo'yicha o'zaro hamkorlik memorandumlari imzolandi.

Memorandumlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish doirasida barcha darajadagi saylov komissiyalarining faoliyatini izchil yoritib borish, siyosiy partiyalar va nomzodlar uchun ularning saylovoldi dasturlari qoidalari, mamlakatimiz siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim masalalariga oid mustaqil nuqtai nazarlarini saylovchilarga, keng jamoatchilikka yetkazishda ommaviy axborot vositalarida teng hajmda efir vaqti va nashr maydoni ajratish yo'li bilan keng va teng imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor qaratiladi.

Markaziy saylov komissiyasi tomonidan hamkor tashkilotlar bilan birgalikda Prezident saylovining ahamiyati, o'ziga xos jihatlari, Saylov kodeksi, saylov qonunchiligiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarning mazmun-mohiyatini saylovchilarga va saylov tashkilotchilariga yetkazish borasida keng ko'lamli va izchil ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda.

O'tgan olti oy mobaynida mamlakatimizdagi va xorijdagi ommaviy axborot vositalari, Markaziy saylov komissiyasining rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida ushbu mavzularda yuzlab maqolalar, suhbatlar, intervyular, videoroliklar e'lon qilindi.

Saylovchilar va saylov tashkilotchilari bilan ko'plab bevosita muloqotlar uyushtirildi. Saylovga bag'ishlangan bunday tadbirlar millionlab fuqarolarni qamrab oldi.

Yana bir muhim yangilik

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi huzurida Matbuot markazi o'z faoliyatini boshladi. Bunga saylov kampaniyasi boshlangan kuni milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarining yuzlab vakillari, blogerlar guvoh bo'ldi. Yaqin kunlarda Matbuot markazining hududiy bo'linmalari ham ishga kirishadi.

Matbuot markazida yuqori malkali jurnalistlar, huquqshunoslar, tarjimonlar, ekspertlar va boshqa mutaxassislardan iborat ixtisoslashgan guruhlar faoliyat olib boradi.

Markaziy saylov komissiyasining Toshkentdagi Simpoziumlar saroyida ish boshlagan Matbuot markazi va uning hududiy bo'linmalari zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlandi.

Ularda jurnalistlarga va jamoatchilikka Prezident sayloviga oid masalalar bo'yicha tezkor axborot yetkazish maqsadida matbuot anjumanlari, brifinglar, uchrashuvlar va boshqa tadbirlar tashkil etiladi. Matbuot markazi Markaziy saylov komissiyasining "Saylov2021" veb-portali hamda boshqa axborot resurslarining yuritilishini ta'minlaydi.

Shuningdek, saylov komissiyalari a'zolari va saylovchilar tezkorlik bilan foydalanishi uchun "Saylov2021" mobil ilovaning taqdimoti o'tkazildi. Ilova saylovga oid zarur ma'lumotlar bilan muntazam to'ldirib boriladi.

Yuksak e'tirof va ko'lamli kuzatuv

Saylovni ochiq va oshkora, demokratik o'tkazishda xalqaro tashkilotlar va xorijiy kuzatuvchilar missiyalarining ishtiroki muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda so'nggi yillarda o'tgan saylovlarda xorijiy va xalqaro kuzatuvchilar soni muttasil oshib bormoqda.

Saylov kampaniyasi davrida barcha siyosiy partiyalar va ular ko'rsatgan nomzodlar uchun sog'lom raqobat muhiti va teng sharoit yaratiladi. Prezident sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq ishlarni, jumladan, saylovchilarning ovoz berish jarayonini siyosiy partiyalarning, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining minglab vakillari va yuzlab xalqaro kuzatuvchilar, jurnalistlar, jumladan xorijlik jurnalistlar bevosita kuzatib boradi.

Xususan, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Ehtiyojlarni baholash bo'yicha missiyasi shu yil may oyida mamlakatimizga tashrif buyurib, O'zbekistondagi saylovoldi muhiti va Prezident sayloviga tayyorgarlik jarayonini, mamlakatimizda erkin va demokratik saylov o'tkazilishini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarni ijobiy baholadi. Prezident sayloviga to'laqonli kuzatuv missiyasini yuborish fikrini bildirdi.

Prezident saylovini mazkur byuroning uch yuzga yaqin, jumladan, 28 nafar uzoq muddatli va 250 nafar qisqa muddatli kuzatuvchilari kuzatib borishi kutilmoqda.

Ushbu jozibali raqamlar jahon hamjamiyatining O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarga qiziqishi tobora ortib borayotgani, yurtimizda mustahkam qaror topgan tinchlik va osoyishtalik, inson manfaatlarini ta'minlashga qaratilayotgan doimiy e'tibor bilan bog'liq. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va demokratlashtirish jarayonlari ortga qaytmas jarayon kasb etib, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida ochiqlik va oshkoralik ta'minlanishi yo'lga qo'yildi.

Markaziy saylov komissiyasi va barcha darajadagi saylov komissiyalari tegishli davlat va nodavlat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda shu yil 24-oktabr kuni bo'ladigan O'zbekiston Respublikasi Prezident saylovini milliy saylov qonunchiligi va xalqaro tamoyillarga tayanib, yuksak demokratik saviyada, uyushqoqlik bilan o'tkazish uchun barcha zarur chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

**Zayniddin NIZOMXO'JAYEV,
O'zbekiston Respublikasi Markaziy
saylov komissiyasi Raisi,
O'zbekiston Qahramoni.**

**Manba: "Yangi O'zbekiston" gazetasi,
2021-yil 27-iyul**

O‘ZBEKISTON AYOLLARINING SIYOSIY HAYOTDAGI VA SAYLOV JARAYONLARIDAGI ISHTIROKI KENGAYMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 22-fevralda har yili o‘tkaziladigan asosiy siyosiy tadbir – BMT Inson huquqlari bo‘yicha Kengashining 46-sessiyasida, gender masalasiga to‘xtalar ekan, O‘zbekistondagi demokratik o‘zgarishlarning ustuvor yo‘nalishlari va mamlakatimizning BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashi faoliyati haqida: “Biz gender siyosati masalalari borasida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tub- dan oshirishga qaratilgan ishlarni qat‘iy davom ettiramiz”, — deb ta’kidladi.

Eng muhim masalalardan biri

Ma’lumki, jamiyat taraqqiyotini demokratlashtirish jarayonini xotin-qizlarning siyosiy hayotda faol ishtirokisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Xotin-qizlarning siyosatdagi va saylov jarayonlaridagi ishtirokiga oid me’yoriy-huquqiy asoslar avvalo xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilangan. Misol uchun, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik va siyosiy huquqlardan teng foydalanish tamoyillariga asoslanib, ayollarning siyosiy va saylov jarayonlarida teng ishtirokini belgilangan bo‘lsa, Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya va boshqa bir qator mintaqaviy konvensiyalarda ushbu huquqlarning amalga oshirilishida jinsga qaralmaslik kerakligi ta’kidlangan. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 25-moddasida barcha fuqarolar nafaqat jamoat va siyosiy tadbirlarda qatnashish, balki haqiqiy davriy saylovlarda ovoz berish va saylanish huquqiga ega ekanligi belgilangan. Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya xotin-qizlarning “davlat idoralarida lavozimlarni egallash va davlat hokimiyatining barcha darajalarida har turdagi davlat funksiyalarini bajarish” huquqini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, ushbu konvensiyaning 7-moddasida a‘zo mamlakatlar o‘zlarining siyosiy va ijtimoiy hayotida xotin-qizlarga nisbatan kamsitishga barham berish uchun barcha choralarni ko‘rishi lozimligi belgilangan. Xususan, ular ayollarning erkaklar bilan teng sharoitlarda barcha saylovlarda va referendumlarda ovoz berish va barcha saylanadigan organlarga saylanish huquqini, shuningdek, hukumat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish huquqini ta’minlaydi.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt ovoz berish huquqini va jamiyat hayotida jinsiy kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligiga qaratilgan hamda Xotin-qizlarni kamsitishning

barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya hukumatlarni bunday kamsitishning har qanday ko'rinishiga barham berish uchun tegishli choralarni ko'rish majburiyatini yuklaydi.

Xotin-qizlarning jamiyat hayotining barcha sohalarida to'liq ishtirok etish huquqi Birlashgan Millatlar Tashkilotining deklaratsiyalari va qarorlarida ko'tarilgan eng muhim masalalardan biri bo'lib kelgan. Xotin-qizlar va ularning siyosiy hayotdagi ishtirokiga oid BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashining qarori (E/RES/1990/15), Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi, Xotin-qizlar holati bo'yicha komissiyaning kelishilgan xulosalari va BMT Bosh assambleyasining 66/130-sonli qarori hukumatlarni ayollar va erkaklarning teng vakilligiga erishish maqsadida ijtimoiy-siyosiy faoliyat sohalarining barcha darajadagi saylanadigan va tayinlanadigan lavozimlarda ayollar sonini sezilarli darajada ko'paytirish bo'yicha choralarni ko'rishga chaqiradi. Xalqaro konvensiyalarga a'zo davlatlar ushbu majburiyatlarni bajarish uchun bir qator xalqaro muassasalarda javobgarlikni o'z zimmlariga oladilar. Saylov organlari o'z mamlakatlarining harakatlari va qarorlari xalqaro majburiyatlarga muvofiq bo'lishini ta'minlashga mas'uldir.

Xotin-qizlarning saylov jarayonidagi ishtiroki erkaklar ishtirokidan farq qilmaydi

O'zbekistonda qonunchilik va davlat siyosati darajasida ayollar huquqlarini, shu jumladan siyosiy huquqlarini ta'minlash va himoya qilish mexanizmlari yaratildi.

Inson huquqlarining asosiy standartlarini belgilaydigan xalqaro huquqiy hujjatlarning qoidalarini amalga oshirish uchun, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida erkak va ayollarning qonun oldida tengligi mustahkamlangan, huquq va erkinliklarni amalga oshirishda gender nuqtai nazaridan kamsitishlarni va ularning cheklanishini taqiqlaydi. Mamlakatimiz konstitutsiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoidalarining mantiqiy davomi saylov qonunchiligida o'z aksini topgan.

Xususan, Saylov kodeksi va "O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida"gi qonunda ovoz berish kuni 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan saylov harakatlarida, shuningdek, referendumga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha boshqa jarayonlarda qatnashish huquqiga ega ekanligi belgilangan. Shu bilan birga, qonunda belgilanganidek, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqei, irqiy va milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabati, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'i nazar, saylash va referendumda ishtirok etish huquqiga ega. Ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda xotin-qizlarning saylov jarayonidagi ishtiroki, huquqiy tartibga solish nuqtai nazaridan, erkaklar ishtirokidan farq qilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonuni xotin-qizlar va erkaklar hokimiyatning vakillik organlariga

saylanishida, shuningdek siyosiy partiyalardan nomzodlar ko'rsatilishida teng huquq va imkoniyatlar bilan ta'minlanishini belgilaydi.

Hech qanday cheklov yo'q

O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi xotin-qizlarning saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishning barcha bosqichlarida ishtirok etish imkoniyatlarini yanada kengaytirishda muhim omil bo'ladi.

Kodeksga muvofiq, xotin-qizlar siyosiy qarorlarni qabul qilishda ovoz berish va saylanish orqali haqiqiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayollarning saylovlardagi ishtiroki ularning davlat boshqaruvi organlaridagi vakilligini ta'minlash imkoniyatini beradi.

Ayollarning saylovlarda nomzod sifatida ishtirok etishi, saylovoldi tashviqotini olib borishi va hokimiyatning vakillik organlariga saylanishi uchun hech qanday cheklov mavjud emas.

Shu bilan birga, qonunda belgilangan partiyalar tomonidan ko'rsatilgan nomzodlarning umumiy sonidan 30 foizi ayollar bo'lishi lozimligi haqidagi talab O'zbekistonda xotin-qizlarning saylov jarayonidagi ishtirokining qo'shimcha kafolati hisoblanadi.

Bu ayollarning deputatlikka nomzod bo'lishi uchun katta imkoniyat yaratilishida muhim ahamiyatga ega. Bu ularning huquqlari va manfaatlarini siyosiy darajada himoya qilishga yordam beradi.

Gender kvotasining izchil qo'llanilishi 2019-yilgi parlament saylovlarida o'z natijalarini berdi. O'zbekiston tarixida birinchi marta Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlar umumiy sonining 32 foizini, Senat tarkibining esa 25 foizini xotin-qizlar tashkil etdi. Milliy parlamentdagi ayollar soni BMT tavsiyalarida belgilangan darajaga yetdi.

Islohotlarning yuksak samarasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yili Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda: "Bugungi kunda keng ko'lamli demokratik islohotlarimiz natijasida ayollarimizning siyosiy-ijtimoiy jarayonlardagi ishtiroki tobora kuchayib bormoqda. Buni o'tgan yil dekabr oyida mamlakatimiz parlamenti va mahalliy kengashlarga bo'lib o'tgan saylovlar yana bir bor tasdiqladi" - deb ta'kidladi.

Qayd etilganidek, O'zbekiston tarixida birinchi marta milliy parlamentda xotin-qizlar soni Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetdi. Mamlakatimiz parlamenti ayol deputatlar soni bo'yicha dunyodagi 190 milliy parlament o'rtasida 37-o'ringa ko'tarildi. Bundan 5 yil avval O'zbekiston ushbu reytingda 128-o'rinni egallab turgan edi.

"Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonun saylovlarni boshqarish organlarida ham gender muvozanatiga rioya qilishni talab qiladi. Saylov organlarida, barcha darajadagi saylov komissiyalarida xotin-qizlar soni oshdi. 2019-yilda Markaziy saylov komissiyasining tarkibidagi o'zgarishlar natijasida ayollar sonining 19 foizdan 33 foizgacha ko'payishi kuzatildi.

Jamiyatning eng faol, obro'li xotin-qizlari mahalla fuqarolar yig'inlari, kasaba uyushmalari, nogironlar jamiyatlari, faxriylar tashkilotlarining vakillari sifatida uchastka saylov komissiyasiga a'zo bo'lish imkoniyati yanada kengaydi. Shuningdek, ular saylovlarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari kuzatuvchilari sifatida qatnashadilar.

Shunday qilib, 2019-yilgi saylov kampaniyasi davrida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarini saylash bo'yicha saylov komissiyalarida ayollarning soni ortdi, ayollar okrug va uchastka saylov komissiyalari tarkibining mos ravishda 46 va 49 foizini tashkil etdi.

Xalqaro e'tirof

O'zbekiston xotin-qizlarining siyosiy jarayonlardagi roli oshirilganligi va ularning 2019-yilgi saylov kampaniyasidagi ishtiroki kengaytirilganligi xalqaro miqyosda ham tan olindi.

YEXHTDIIHB Kuzatuvchilar missiyasining 2019-yilgi parlament saylovlari bo'yicha yakuniy hisobotida, jumladan quyidagilar ijobiy baholangan:

- har bir partiya tomonidan nomzodlar ko'rsatishda gender kvotasiga amal qilindi. Barcha partiyalar tomonidan jami 310 nafar xotin-qiz nomzodlar ko'rsatildi (41 foiz);
- Qonunchilik palatasi tarkibida ayollar sonining ortishi (16 foizga), yangi parlamentdagi xotin-qizlar soni ikki baravarga ko'payishi (48 nafar yoki 32 foiz);
- saylov organlarda xotin-qizlar sonining ortishi. 2019-yilda Markaziy saylov komissiyasining ayol a'zolari soni 3 tadan 7 kishiga oshdi. Uchastka saylov komissiyalari a'zolarining yarmini ayollar tashkil etdi.

Shuni ta'kidlash joizki, 2020-yil dekabrda Toshkent shahrida xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirokida "O'zbekiston taraqqiyotida Parlamentdagi ayollarning roli" mavzusida birinchi Forum bo'lib o'tdi. Uning amaliy ahamiyati yuqoriligi shundaki, u bizning jamiyatimizda iqtisodiy taraqqiyot, demokratik rivojlanish va barqarorlikning asosiy sharti bo'lgan xotin-qizlarning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilishdagi faol ishtirokining butun majmuasini ochiq muhokama qilish uchun ajoyib imkoniyat yaratdi.

Ishlar izchil davom etmoqda

O'zbekistonning siyosiy hayotida xotin-qizlarning teng ishtirok etishiga erishishning muhim vazifalaridan biri – xabardorlikni oshirish, xotin-qizlarning siyosiy jarayonlarda ishtirok etishi ahamiyati haqidagi tushunchalarini kengaytirish maqsadida ayollar va erkaklar ta'limini olib borish, milliy qonunchilik, xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya, Pekin Harakatlar platformasi va Ming yillik rivojlanish maqsadlarini o'z ichiga olgan gender tenglik sohasidagi xalqaro va milliy majburiyatlar hamda bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tarqatishdan iborat.

Bundan tashqari, amaliy va ilg'or tajribani almashish orqali xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish maqsadida mavjud xotin-qizlar tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va ilmiy hamjamiyatni kuchaytirish kabi tadbirlar muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalarida ayollar va erkaklarning ham nomzodlar sifatida, ham siyosiy arboblarning sifatida faoliyatini yoritishda ularning teng ishtirokini ta'minlash ham shunday muhim vazifalardandir.

Darhaqiqat, so'nggi yillarda O'zbekistonda gender tenglikni, ayollarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasidagi ishtirokini ta'minlash bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Bu ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Gulnoza RAHIMOVA,
O'zbekiston Respublikasi Markaziy
saylov komissiyasi doimiy asosda
ishlovchi a'zosi.





KIRISH: O‘QUV QO‘LLANMA HAQIDA

Dunyodagi jami aholining qariyb yarmini xotin-qizlar tashkil etganiga qaramay, Parlamentlararo assotsiatsiya (IPU) ma’lumotlariga ko’ra, qarorlari kishilarning kundalik hayotiga bevosita ta’sir qiladigan jahondagi qonunchilik organlarida faoliyat ko’rsatadigan xotin-qizlar salmog’i 2021-yil 1- yanvar holatiga bor-yo’g’i 25,5% ni tashkil qilgan xolos. Biroq qaror qabul qilish jarayonlarida xotin-qizlarning to’laqonli ishtirok etishi ko’rib chiqilayotgan siyosiy masalalar kun tartibini ishlab chiqish, shuningdek, ularni hal etish yo’llarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Tadqiqotlarning ko’rsatishicha, qonun chiqaruvchining jinsi siyosiy ustuvor yo’nalishlarni belgilashga ta’sir ko’rsatishi muqarrar, shuning uchun ayollar va boshqa marginallashtirilgan fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish hamda siyosatni shakllantirish va boshqarishga yanada tezkor javob berishga ko’maklashish uchun xotin-qizlarning siyosatda ishtirok etishlari juda muhimdir”¹.

Misol uchun, Quvaytda 2009-yilda xotin-qizlarga deputatlikka nomzodini qo’yishga ruxsat berilgandan so’ng, parlamentga saylangan xotin-qizlar mehnat qonunchiligiga o’zgartirish kiritishga erishdilar, ular, xususan, mehnat qilayotgan ayollarga bolalarini emizish uchun tanaffuslar joriy qilinishiga sababchi bo’ldilar. Hindistonda esa, mahalliy kengashlardagi xotin-qizlar sonining ortishi tufayli qishloq joylarni ichimlik suvi bilan ta’minlash bilan bog’liq loyihalar soni sezilarli darajada oshdi. Deputatlikka saylangan xotin-qizlar ko’pincha, ijtimoiy muammolarga e’tibor qaratishadi, bu ehtimol ayollarning uy-ro’zg’or ishlari va muammolari bilan ko’proq band bo’lishiga bog’liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasidagi xotin-qizlar salmog’i jahon darajasidan biroz yuqori – 32,7% ni tashkil qiladi. Shuningdek, ayollar hukumatda ham yuqori lavozimlarda faoliyat ko’rsatmoqda (Maktabgacha ta’lim vaziri lavozimida, qator vazirlarning o’rinbosarlari lavozimlarida). Senat raisi (ushbu uslubiy qo’llanma tayyorlanayotgan paytda) ham ayol kishidir. Shu bilan birga, hokim ayollar soni juda kamchilikni tashkil qiladi. Bundan tashqari, 2020-yilgi

¹ Volden, Craig, Alan E. Wiseman and Dana E. Wittmer (2010) The Legislative Effectiveness of Women in Congress, [http:// polisci.osu.edu/faculty/cvolden/VWWomenLEP.pdf](http://polisci.osu.edu/faculty/cvolden/VWWWomenLEP.pdf).

ma'lumotlarga ko'ra, ichki ishlar organlarda faoliyat ko'rsatayotgan xotin-qizlar salmog'i 11%, sudyalar tizimidagi bu ko'rsatkich esa, 12,8% ni tashkil etadi².

O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlarning bunday zaif holatini hisobga olgan holda, shuningdek, jamiyatda gender tenglik g'oyalarini ilgari surish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda BMTTDning O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan birgalikda "Saylovlar va gender: xotin-qizlarni siyosatda qo'llab-quvvatlashning xalqaro va milliy amaliyotlari" mavzusidagi turkum treninglar, shuningdek, trening ishtirokchilari hamda boshqa qiziquvchilar uchun mazkur uslubiy qo'llanmani ishlab chiqish tashabbusini ilgari surdilar.

Ushbu qo'llanmada foydalaniladigan gender tenglik tushunchasiga shunday ta'rif beriladi: gender tenglik – irqi, dini, jismoniy holati, jinsiy orientatsiyasi va boshqa xususiyatlardan qat'i nazar, ayollar va erkaklarning teng huquqiy maqomidir. Shuningdek, unda kishilarning jinsi va yuqorida aytib o'tilgan sifatlaridan qat'i nazar, ularga siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarida ishtirok etish uchun o'z imkoniyatlaridan erkin foydalanishga imkon beradigan teng imkoniyatlar nazarda tutiladi.

Tashabbuskorlar bu treninglar va uslubiy qo'llanma xotin-qizlar, jumladan imkoniyati cheklangan ayollarning O'zbekistonning saylov va gender tenglik, milliy qonunchilik sohasidagi xalqaro majburiyatlari to'g'risidagi bilimlarini oshirish, saylov tizimlari va tuzilmalarida xotin-qizlarning sonini oshirish orqali ularning ta'sirini tushunish va ular orasidan rahbarlik malakasiga ega xotin-qizlarning salohiyatini oshirishga yordam beradi, deb umid qiladilar. Ushbu qo'llanmada xotin-qizlarni siyosatda qo'llab-quvvatlashning eng yaxshi jahon amaliyotlari, shuningdek, hududlardagi faol xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator tavsiyalar keltirilgan. Ushbu qo'llanmaning "Ilovalar" qismida o'quvchilar rus va ingliz tillarida qo'shimcha foydali resurslar va adabiyotlar ro'yxatini, shuningdek, Parlamentlararo assotsiatsiya (IPU) tomonidan ishlab chiqilgan dunyo mamlakatlari bo'yicha "Siyosatdagi ayollar: 2021-yil" reytingi bilan tanishishlari mumkin bo'ladi.

² <https://gender.stat.uz/uz/qo-shimcha-ko-rsatkichlar/ijtimoiy>

1-BOB. SAYLOV VA GENDER TENGLIK SOHASIDAGI XALQARO MAJBURLYATLAR

Barcha davlatlarning (hatto ba'zilari ayni saylov tizimidan foydalansalar ham) saylovlari o'ziga xos sanaladi. Saylovlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish qoidalari bir-biridan turli tartiblari bilan farqlanib, ularni amalga oshirishga u yoki bu xalqning tarixiy an'analari, demografik vaziyat, Konstitutsiya yoki boshqa asosiy qonunning amaldagi me'yorlari, joriy siyosatdagi dolzarb vaziyat va mamlakatdagi davlat muassasalariga bo'lgan ishonchning umumiy darajasi kabi omillar ta'sir qiladi. Bundan tashqari, bugungi kunda bunday omillardan biri davlat saylov sohasida o'z zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlar ham sanaladi. Xalqaro majburiyatlar deganda, biror davlatning hukumati imzolagan va ratifikatsiya qilgan xalqaro deklaratsiyalar, shartnomalar, konvensiyalar, bitimlar ko'zda tutiladi.

Xalqaro shartnomalarning ishtirokchisiga aylangan davlatlar barcha sohada, jumladan saylovlar va gender sohasida inson huquqlarini hurmat qilish, himoya qilish va unga rioya qilishning xalqaro huquq me'yorlari bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmalariga oladilar. Hukumatlar inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalarni imzolash va ratifikatsiya qilish orqali "o'z ichki me'yorlari va qonunchiligini o'sha shartnoma majburiyatlariga mos keladigan tarzda amalga oshirishga majburdirlar"³.

Shartnomalarni imzolash va ratifikatsiya qilish

Imzolash va ratifikatsiya qilish shartnomani qabul qilish jarayoni va uni keyinchalik amalga oshirishdagi farqlanuvchi ikki qadam hisoblanadi.

Xalqaro shartnomada turli manfaatdor mamlakatlar ishtirok etishi ko'zda tutiladi, shuning uchun shartnoma imzolanishi oldidan muzokaralar olib boriladi. Muayyan murosaga kelib, uni hujjatda aks ettirgandan so'ng, shartnoma barcha tomonlar tarafidan imzolanadi. Hujjatni imzolash tomonlarning shartnoma shartlariga rioya qilish maqsadini ifodalaydi, ammo bu maqsadni ifoda etishning o'zi majburiy xarakterga ega emas. Bundan tashqari, qonun yoki shartnoma qabul qilinganligi yoki unga amal qilinishini kafolatlamaydi.

Imzolangandan so'ng hujjat ratifikatsiya qilinishi, boshqacha qilib aytganda, tasdiqlanishi kerak. Mamlakat shartnomani ratifikatsiya qilgandan so'ng, u o'sha shartnoma talablariga muvofiqligini kafolatlaydigan milliy qonunlarni qabul qilishi zarur bo'ladi.⁴

³ <https://www.ohchr.org/en/professionalinterest/pages/internationallaw.aspx>

⁴ <https://ru.natapa.org/difference-between-signing-and-ratification-1553>



Inson huquqlari butunjahon deklaratsiyasining ispancha talqinini qo'lda ushlab olgan Eleonora Ruzvelt xonim (Franklin D Roosevelt Library website)

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi saylov va gender tenglik sohasidagi barcha xalqaro majburiyatlarning asosiy manbai hisoblanadi. Aynan ushbu hujjat Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo 193 ta davlatning aksariyatida demokratik saylovlarning tayanch tamoyillarini, shu asosda esa, saylov qonunchiligi rivojlanishining yo'nalishini belgilab beruvchi xalqaro huquqning yanada rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, shuningdek, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT), Amerika davlatlari va boshqa davlatlararo birlashmalar

tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan mintaqaviy saylov standartlarini rivojlantirishga ham ta'sir qilgan.

Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillar orqali o'z mamlakatini boshqarishda qatnashish huquqiga ega degan asosiy printsiptni mustahkamlab qo'ydi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 21-moddasida, shuningdek, xalq irodasi hukumat hokimiyatining asosi bo'lishi lozimligi, bu iroda davriy va soxtalashtirilmagan, yalpi va teng saylov huquqidan, yashirin ovoz berish yo'li bilan yoki ovoz berish erkinligini ta'minlaydigan boshqa teng qiymatli shakllar vositasida o'tkaziladigan saylovlarda o'z aksini topishi lozimligini ta'kidladi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi tavsiyanomaviy xarakterga ega bo'lganligi sababli, muhim siyosiy va fuqarolik huquqlarining keng doirasini qamrab oladigan qonuniy majburiy hujjatni ishlab chiqishga qaror qilindi. Bu jarayon natijasida 1966-yilda Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt qabul qilindi. Bu Pakt 1976-yilda kuchga kirgan bo'lib, u o'z mamlakati boshqaruvida ishtirok etish huquqi "hech bir kamsitishsiz va asoslanmagan cheklashsiz" ta'minlanishi kerakligini belgilab bergan. Shu tarzda, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt o'z mamlakati boshqaruvida ishtirok etish huquqining universalligini yana bir bor ta'kidladi.

Chin ma'nodagi demokratiyani muntazam, yaxshi tashkil etilgan, adolatli va erkin saylovlarsiz tasavvur etish qiyin, biroq saylovlar demokratiya gullab-yashnashining yagona sharti emas, albatta. Shuning uchun ham Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt davlatni boshqarishda ishtirok etish huquqini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa inson huquqlarini ham mustahkamlab qo'ygan. Bularga, so'z erkinligi, yig'ilish erkinligi, tegishli huquqiy tartiblardan foydalanish huquqi, odil sudlov, boshqa fuqarolik va siyosiy huquqlar kiradi.

Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida konvensiya BMT Bosh assambleyasi tomonidan 1979-yili qabul qilinib, 1981-yili kuchga kirgan. Bu paytga kelib dunyoning aksariyat mamlakatlarida xotin-qizlar nomzod sifatida ovoz berish va saylov jarayonlarida qatnashish huquqini qo'lgan kiritgan bo'lsalar-da, ko'p mamlakatlarda ijtimoiy-

siyosiy hayotda gender asosidagi kamsitishlar saqlanib qolgan, boz ustiga, urf-odatlar va turmushning yozilmagan qoidalari xotin-qizlarning siyosatga jalb qilinishiga salbiy ta'sirini saqlab qolgan edi. Shu sababli, Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida konvensiya, ushbu xalqaro shartnomaga a'zo bo'lgan davlatlarga, ayollarga erkaklar bilan teng shartoitlar asosida quyidagi huquqlarni ta'minlash majburiyatini yukladi:

a) barcha saylovlar va ommaviy referendumlarda ovoz berish va ommaviy saylanadigan organlarga saylanish;

b) davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda qatnashish hamda davlat lavozimlarini egallash, shuningdek, davlat boshqaruvining barcha bo'g'inlarida davlat vazifalarini amalga oshirish;

c) mamlakatning ijtimoiy va siyosiy hayot muammolari bilan shug'ullanadigan hukumatga qarashli bo'lmagan tashkilotlar va uyushmalarning faoliyatida qatnashish.

Shuni ta'kidlash joizki, bu yerda "huquqni ta'minlash" tushunchasi nafaqat kafolat majburiyati, balki xotin-qizlarning siyosiy huquqlarini amalga oshirishga ko'maklashish va qo'shimcha choralarni ko'rish majburiyatini ham anglatadi. Bundan tashqari, Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida konvensiya, uni ratifikatsiya qiluvchi davlatlarga fuqarolik, nikoh, salomatlik va mehnat kabi masalalarda gender tenglikka rioya qilish majburiyatini yukladi. Aynan mehnat qilish sohasida gender tenglikka rioya qilish masalasi siyosatda xotin-qizlar sonining oshishida muhim rol o'ynaydi, chunki aynan barqaror daromad manbaining yo'qligi ko'pincha ayollarning o'zlarini ijtimoiy va siyosiy faoliyatga faolroq kirishishlariga to'sqinlik qiladi.

Xalqaro saylov standartlari va gender tenglik tamoyillarini o'z ichiga olgan boshqa muhim hujjatlar sirasiga quyidagilarni ham kiritish mumkin:

- Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi konvensiya (1952),
- Barcha turdagi irqiy kamsitishlarga barham berish to'g'risida xalqaro konvensiya (1965),
- Ayollarga nisbatan kamsitishni bartaraf etish to'g'risidagi deklaratsiya (1967),
- Pekin deklaratsiyasi (1995),
- Korrupsiyaga qarshi BMT konvensiyasi (2003),
- Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya (2006).

Davlat tomonidan umumiy va teng saylov huquqi, davriy saylovlar, yashirin ovoz berish, saylov jarayonida kamsitishga yo'l qo'ymaslik, qonun ustuvorligi, shuningdek, xalqaro hujjatlarda ko'rsatilgan gender tenglik tamoyillari kabi xalqaro saylov standartlariga rioya etilishi bizga mamlakatda erkin va adolatli saylovlar haqida gapirish imkonini beradi.

Ushbu qo'llanmaning "Ilovalar" bobida o'quvchilar Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan hamda saylov huquqi va gender tengligi uchun muhim bo'lgan xalqaro hujjatlardan parchalar bilan tanishishlari mumkin bo'ladi.

Boshqa xalqaro majburiyatlar

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi nafaqat Birlashgan Millatlar tashkilotining a'zosi, balki 40 dan ortiq hukumatlararo tashkilotdir. Xususan, O'zbekiston Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT) a'zosi bo'lib, u o'z faoliyati davomida demokratik saylovlarga bo'lgan huquqni amalga oshirish bo'yicha bir qator standartlar va majburiyatlarni ishlab chiqishga muvaffaq bo'ldi.

Erkaklar va ayollar uchun saylov huquqlarining ko'p qirraliligi

O'zbekiston Respublikasi o'z zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlar bilan tanishishdan, irqiy, din yoki jismoniy holat shaklidagi qo'shimcha xususiyatlardan qat'i nazar, erkaklar va ayollar uchun demokratik huquqlarning universalligi saylov sohasida muhim omil hisoblanadi. Xotin-qizlar, shu jumladan nogironligi bo'lgan ayollar mamlakatning siyosiy hayotida teng ishtirok etish huquqiga ega, shu jumladan, nomzod sifatida ishtirok etish huquqiga ega.

Xotin-qizlarning siyosiy qarashlarini mustaqil ravishda shakllantirish, shuningdek, saylovda ovoz berish huquqi jamiyatning barcha a'zolari tomonidan hurmat qilinishi va ayollar va ularning oila a'zolari, saylov komissiyalari a'zolari, siyosiy partiyalar, diniy rahbarlarva boshqa manfaatdor tomonlar tomonidan qat'iy rioya qilinishi kerak.

Demokratik davlat nafaqat saylovlardan boshlanadi, balki mamlakatning barcha saylovchilari, shu jumladan xotin-qizlar tomonidan ham faol, ham passiv saylov huquqini amalga oshirishga qiziqish va amalga oshirish imkoniyati bilan boshlanadi.



2-BOB. SAYLOV TIZIMI SHAKLIDAGI TARTIB-QOIDALAR TO'PLAMI

Saylov tizimining konsepsiyasi va elementlari

Saylovlar – bu jamoaviy qarorlar qabul qilishning rasmiy jarayoni bo'lib, uning yordamida aholi qonun chiqaruvchi organlarda, mintaqaviy va mahalliy kengashlarda, ba'zida ijro etuvchi va sud hokimiyatlarida, shuningdek boshqa ko'plab notijorat va tijorat tashkilotlarining kasaba uyushmalaridan tortib, korporativ kuzatuv kengashlarigacha bo'lgan organlarda saylanadigan lavozimlarga bir yoki bir necha shaxslar saylanadilar.

Shubhasiz, saylovlar barcha manfaatdor tomonlar uchun aniq belgilangan va muayyan qoidalar asosida o'tkazilishi kerak. Saylovlarning qanday o'tkazilishini va ularning natijalari qanday aniqlanishini belgilovchi tartib-qoidalar to'plami saylov tizimi hisoblanadi.

Saylov tizimining muhim elementlari quyidagilardir:

- saylov okrugining ko'lami (kattaligi);
- saylov byulleteni shakli;
- ovozlar mandatlarga (tanlangan organdagi joylar) o'tkaziladigan tartib (formula (saylovda g'olib chiqqan nomzodni aniqlash tartibi)).

Saylov okrugi – saylovga nomzodi qo'yilgan mansabdor shaxslar saylanadigan hududiy birlikdir. Saylov okrugining chegaralarini aniqlashda u yerda yashovchi saylovchilar soni (kamdan-kam hollarda – umumiy aholi soni) birinchi darajali ahamiyatga ega.

Saylov okrugining ko'lami uning haqiqiy geografik chegaralari emas, balki ushbu okrugda bo'lib o'tadigan mandatlar sonini (saylov organdagi joylar) anglatadi.

Saylov okruglari bir mandatli va ko'p mandatli bo'ladi.

Bir mandatli saylov okrugida saylovchilar o'sha okrugdan faqat bitta vakilni saylaydilar. Ko'p mandatli saylov okrugida bir vaqtning o'zida bir nechta vakil saylanadi. Qonunchilik organlariga bo'ladigan saylovlarda davlatning hududi yoki mahalliy saylovlar (masalan, viloyat yoki shahar kengashiga) paytida, ma'muriy-hududiy birlik hududi quyidagicha bo'linishi mumkin:

Davlat rahbari saylanadigan saylovlar paytida mamlakatning hududi bitta umummilliy ko'p mandatli okrugga aylanadi.



bir nechta bir mandatli okruglar



bir nechta ko'p mandatli okruglar



bitta umummilliy ko'p mandatli okrug

Davlat rahbari saylovida mamlakat hududi umummilliy bir mandat okrugidir.

Saylov byulleteni – saylovchilarning saylovda nomzod/ partiyaga nisbatan o'z tanlovini (xohishini) ifoda etish vositasidir. Saylov byulletenida biror saylov lavozimi yoki siyosiy partiyalarga nomzodlar ro'yxati bo'lib, u nomzodlar ovoz berish natijalariga ko'ra mandat olishlari mumkin bo'ladi. Shuningdek, referendum tashkil etilgan taqdirda, saylov byulletenlarida bir necha javob variantlarini o'z ichiga olgan savollar o'rin olishi mumkin.

Shakl bo'yicha byulletenlarni shartli ravishda quyidagicha ajratish mumkin:

toifali (saylovchi bir yoki bir nechta ma'qullash belgisini (yoki shu kabi belgilarni) qo'yadi;


SAYLOV BYULLETENI	
Nomzodlarni fikringizga ko'ra ustuvorlik tartibida belgilang.	
1 – eng afzal bilganim	
5 – kamroq afzal deb bilganim	
A nomzod	1
B nomzod	3
D nomzod	2
E nomzod	4
F nomzod	5

Preferentsial (saylovchilar o'z xohishlariga ko'ra nomzodlar/siyosiy partiyalarni ustuvorlik jihatdan tartiblab chiqadi)

Saylov tizimining soddalashtirilgan shakldagi tartibini (formulasini) ovoz sonini mandatlar soniga aylantirish usuli deya tavsiflanishi mumkin. Dunyoning turli mamlakatlarida eng ko'p ishlatiladigan tartib – oddiy ko'pchilik, nisbiy ko'pchilik, bergan ovozlarga asoslanadi.

Saylov tizimlar tasnifi

Yuqorida keltirilgan elementlarning majmuasiga qarab, saylov tizimlari uch turga (oilalarga) bo'linishi mumkin va o'z navbatida, ularning har biri bir nechta saylov tizimini o'z ichiga oladi:



Bundan tashqari, olimlar va mutaxassislar ba'zan "Boshqa saylov tizimlari" degan toifani ham ajratib ko'rsatadilar. Ular majoritar saylov tizimi bo'lsalar ham, proporsional natijalarga asoslanadi.

Majoritar saylov tizimlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) Nisbiy ko'pchilik majoritar tizimi (FPTP);
- 2) Mutlaq (absolyut) ko'pchilik majoritar tizimi (TRS);
- 3) Muqobil ovoz berish (AV);
- 4) Blokli ovoz berish (BV);
- 5) Partiya-blokli ovoz berish (PBV).

Proporsional saylov tizimlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) Yopiq ro'yxatli proporsional tizim (Closed List PR);
- 2) Ochiq ro'yxatli proporsional tizim (Open List PR);
- 3) Yagona o'tkaziladigan ovozga asoslangan tizim (STV).

Aralash saylov tizimlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:


- 1) Parallel tizim;
- 2) O'zaro bog'liq (bir-birini to'ldiruvchi) tizim (MMP).

Boshqa tizimlarga quyidagilar kiradi:

- 1) Yagona o'tkazilmaydigan ovozga asoslangan tizim (SNTV);
- 2) Borda usuli bo'yicha ovozlarni sanash (BC);
- 3) Cheklangan ovoz berish (LV).

Shuni darhol ta'kidlash kerakki, saylov tizimi muqim xarakterga ega emas. Davlatlar saylov tizimini jamiyatning bir yoki bir necha davrida mamlakatning ustuvor jihatlariga qarab o'zgartirishi mumkin (masalan, saylovchilar va deputatlar orasida aloqani mustahkamlashda geografik vakillikni ta'minlash uchun majoritar tizim qulay bo'lsa, natijalarni belgilash vaqtida ovozlarni proporsional taqsimlash uchun proporsional tizim qo'llaniladi).

Quyida 2021-yil mart oyi holatiga dunyodagi mamlakatlarning yagona yoki quyi palatalariga saylash uchun saylov tizimlarining turlari xaritasi keltirilgan.



- Majoritar tizim (87 ta mamlakat)
- Proporsional tizim (86 ta mamlakat)
- Aralash tizimlar (32 ta mamlakat)
- Boshqa tizimlar (6 ta mamlakat)
- Bevosita saylovlar mavjud emas (7 ta mamlakat)
- O'tish davri (2 ta mamlakat).

Majoritar saylov tizimi turlariga qisqacha tavsif

Nisbiy ko'pchilik majoritar tizimi (FPTP) – mamlakatning hududi bir mandatli okruglarga bo'linadigan majoritar saylov tizimining bir turi bo'lib, unda har bir raqibidan ko'proq ovoz olgan nomzod bir mandatli okrug g'olibi hisoblanadi.

Mutlaq (absolyut) ko'pchilik majoritar tizimi ("ikki bosqichda ovoz berish") (TRS) – mamlakatning hududi bir nechta bir mandatli okruglarga bo'linadigan va bir mandatli okrugda g'olib 50% dan ortiq ovoz olgan nomzod hisoblanadigan tizim. Nomzodlardan birortasi ham ko'pchilik ovozini olishga muvaffaq bo'lmagan bo'lsalar, odatda birinchi turda ko'proq ovoz olgan ikkita nomzod uchun saylovning ikkinchi turi tashkil qilinadi. Ikkinchi turda ko'proq ovoz olgan nomzod g'olib deb hisoblanadi.

Muqobil ovoz berish (AV) – mamlakatning hududi bir nechta bir mandatli okruglarga bo'linadigan, saylovchilar esa, byulletendagi nomzodlarni o'z xohishiga ko'ra ustuvorlik jihatdan mos ravishda raqamlab chiqadigan tizimdir. Masalan, agar saylovchi A nomzod qarshisiga – 1, B nomzod qarshisiga – 2, D nomzod qarshisiga – 3 sifatida tegishli nomzodlar nomi to'g'risiga raqam qo'yib chiqqan bo'lsa, u saylovchi A nomzodning saylanishini ko'proq xohlashini bildiradi. Agar A nomzod g'olib chiqmasa, demak, 2-ovoz B nomzodga berilganligini bildiradi. Bu yerda, saylovchi D nomzodning saylanishiga unchalik ham xayrixoh emas). Agar ovozlarni sanab chiqishda, 1-ustuvor nomzod bo'yicha biror nomzod ham mutlaq ko'pchilik ovozini (50%+1) to'plamagan bo'lsa, eng kam ustuvorlik bahosini olgan nomzod uchun berilgan ovozlar ikkinchi ustuvorlik bo'yicha nomzod asosida qolgan nomzodlarga taqsimlanadi. Nomzodlardan biri ovozlarning mutlaq ko'pini olgunga qadar ushbu tartib davom etadi.

Blokli ovoz berish (BV) – mamlakatning hududi bir nechta ko'p mandatli okruglarga bo'linadigan, saylovchida esa, o'z xohishidan kelib chiqib, qancha mandat bo'yicha nechta nomzodga ovoz berish huquqi beriladigan tizimdir. Bunda okrugdagi mandatlar soni bo'yicha ko'proq ovoz olgan nomzodlar g'olib chiqadi. Masalan, uch mandatli okrugda 5000, 4500 va 4000 ta ovoz bilan uchta nomzod g'olib chiqadi, bunda boshqa barcha nomzodlar kam ovoz olgan bo'lishi kerak bo'ladi.

Partiya-blokli ovoz berish (PBV) – mamlakatning hududi bir nechta ko'p mandatli okruglarga bo'linadigan va saylov byulletenida saylovchilar 1 ta siyosiy partiyaga ovoz beradigan tizim. Ko'proq ovoz olgan partiya okrugdagi barcha o'rinlarni to'ldirish huquqini oladi (masalan, uch mandatli okrugda "A" partiya ko'proq ovoz olgan bo'lsa, unda barcha uchta mandat uning vakillari bilan to'ldiriladi).

Proporsional saylov tizimi turlariga qisqacha tavsif

Yopiq ro'yxatli proporsional tizim (Closed List PR) – deputatlik mandatlarini nomzodlarning ro'yxatlari o'rtasida nomzodlar ro'yxatiga berilgan ovozlariga mutanosib ravishda taqsimlanadi (masalan, agar partiyada saylovchilarning 15% ovoz bergan bo'lsa va parlamentda 100 ta deputat o'rni bo'lsa, bu partiyaga 15 ta o'rin beriladi). Ro'yxatlardagi nomzodlarning tartibi partiya rahbariyatini belgilab beradi.

Ochiq ro'yxatlari proporsional tizim (Open List PR) – deputatlik mandatlarini nomzodlarning ro'yxatlari o'rtasida nomzodlar ro'yxatiga berilgan ovozlariga mutanosib ravishda taqsimlanadi, ammo saylovchilar ushbu ro'yxatdagi muayyan nomzodlar uchun ovoz berish imkoniyatiga ega bo'ladi (usullar mamlakatlarga qarab farqlanadi). Masalan, agar partiyada saylovchilarning 15% ovoz bergan bo'lsa va parlamentda 100 ta deputat o'rni bo'lsa, bu partiyaga 15 ta o'rin beriladi. Biroq bu o'rinlarni ro'yxatdagi kim egallashi ovoz berish natijalariga ta'sir qiladi.


Yagona o'tkaziladigan ovozga asoslangan tizim (STV) – mamlakatning hududi bir nechta kichik ko'p mandatli okruglarga bo'linadigan va saylovchi o'z xohishiga qarab nomzodlarni tasniflashi kerak bo'lgan tizim. G'oliblarni aniqlash uchun maxsus kvota qo'llaniladi. Agar kvotalar sanalgandan so'ng joylar to'liq bo'lmasa (nomzodlar belgilangan kvota bo'yicha kam ovoz to'plagan bo'lsa), maxsus koeffitsiyentlardan foydalangan holda g'oliblarning byulletenlarida ikkinchi va undan keyingi o'rinlardagi deputatlar uchun ovozlar qayta hisoblanadi. Agar bundan keyin ham mandatlar to'liq bo'lmasa, ular eng kam muvaffaqiyatli nomzodlarning saylov byulletenlarini qayta taqsimlashga o'tadilar. Ushbu tizim hisoblashni tashkil qilish uchun juda murakkab bo'lsa-da, unda geografik joylashuv omili saqlanib qolgan holda, proporsional vakillikka erishishga yordam beradi.

Aralash saylov tizimi turlariga qisqacha tavsif

Parallel saylov tizimi – bir vaqtning o'zida parlamentning bir qismini saylash uchun proporsional saylov tizimidan, boshqa qismi uchun esa, majoritar saylov tizimidan foydalanishni ko'zda tutuvchi tizim. Bunda, saylovchiga ikkita saylov byulletenini beriladi: ularning birida partiya belgilansa, ikkinchisida, okrug bo'yicha nomzodga ovoz beriladi.

Aralash (bir-birini to'ldiruvchi) tizim (MMP) – bunda ham, saylovchiga ikkita saylov byulletenini beriladi: ularning birida partiya belgilansa, ikkinchisida, okrug bo'yicha nomzodga ovoz beriladi. Biroq saylov natijalari aniqlanayotganda, dastlab beruvchi proporsional tarkibi soni hisoblanadi. Bu o'sha partiyaning parlamentda nechta o'rin olishini aniqlab beradi. Undan so'ng, ana shu sondan okruglardagi partiya vakillari yutib olgan o'rinlar soni ayirib tashlanadi. Qolgan qismini esa, partiya o'z ro'yxatidagi nomzodlar bilan to'ldirishi mumkin. Bunday tizim parallel saylov tizimining ayrim kamchiliklarini bartaraf etishga imkon beradi, xususan, partiyani butun mamlakat bo'ylab qo'llab-quvvatlashning nomutanosib darajada katta darajasini kamaytirish uchun.

2021-yil mart oyi holatiga ko'ra dunyoda saylov tizimlaridan foydalanish statistikasi



Saylov tizimlari va siyosatdagi xotin-qizlar soni

Saylov tizimlari faqat jamiyatning turli ustuvor yo'nalishlarini ta'minlabgina qolmay, u xotin-qizlarning hukumat organlaridagi vakilligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Proporsional va aralash tizimlar, odatda, majoritar tizimga qaraganda ko'proq xotin-qizlarning saylanishiga olib keladi. Chunki bunda majoritar tizimga xos bo'lgan bitta "eng maqbul nomzodni" ilgari surish amaliyotidan voz kechiladi. Ratsional darajada katta saylov okruglaridan foydalanadigan saylov tizimlari partiyalarga xotin-qizlarning nomzodlarni qo'yishni rag'batlantiradi, chunki nomzodlarida gender tenglikga rioya qilingan ro'yxatlar ularning saylanish imkoniyatlarini kengaytiradi".⁵

Biroq proporsional saylov tizimini qo'llash siyosatga yetarli darajada xotin-qizlarni jalb qiladi, degan fikrdan yiroqmiz. Dunyoning ko'plab davlatlarida xotin-qizlarning (shuningdek, yoshlar va nogironlar) yetarlicha vakilligiga erishish uchun gender kvotalari shaklida vaqtinchalik maxsus choralar qo'llaniladi.

⁵ <https://aceproject.org/ace-ru/topics/es/esd/esd06/esd06d>

3-BOB. GENDER KVOTALARI VA ULARNI TURLI SAYLOV TIZIMLARI BILAN UYG'UNLASHTIRISH XUSUSIYATLARI

Gender kvotalari: ijobiy va salbiy tomonlari

Saylov organlardagi xotin-qizlar sonining oshish sur'atlari u qadar yuqori emasligini xolis baholash va bu orqali qarorlar qabul qilish jarayonlariga xotin-qizlarning ta'siri past ekanligini hisobga olib, saylov sohasidagi nazariy va amaliy mutaxassislar xotin-qizlarni siyosatga ko'proq jalb qilish, shu jumladan, gender kvotalarini tatbiq qilishning samarali usullarini qo'llash zarurligi haqida gapira boshladilar. Biroq gender kvotalarini qonun bilan mustahkamlash har doim jamiyatda bunday choralarning ijobiy va salbiy xususiyatlari asosidagi, munozaralarga sabab bo'ladi.



Gender kvotalarini joriy qilishga qarshilar bu narsa tenglik prinsipiga zid ekanligini ta'kidlab, bunda aholining bir toifasiga boshqasiga qaraganda ko'proq imkoniyatlar berilishi mumkinligini iddao qiladilar. Ular, shuningdek, gender kvotalari saylovchilarning saylov natijalariga ta'siri darajasini pasaytirishi, aksariyat ayollar faqat ayol bo'lgani uchungina saylanishni istamasligini ro'kach qiladilar. Bundan tashqari, kvotalar siyosiy partiyalarning ichki nizolarini keltirib chiqarish ehtimoli yuqori.



Gender kvotalarining tarafdorlari xotin-qizlarning boshqa fuqarolar sifatida teng va proporsional vakillik qilish huquqiga ega ekanligini va xotin-qizlar uchun kvotalar erkaklarni kamsitilmasligini, balki xotin-qizlarning siyosatdagi vakilligining adolatli ulushiga ega bo'lishiga to'sqinlik qiluvchi haqiqiy to'siqlarni bartaraf qilishini ta'kidlaydilar. Bundan tashqari, xotin-qizlarning tajribasi ham siyosatda, ham biznesda, ayniqsa, ayollar va umuman, aholi uchun muhim bo'lgan qarorlarni qabul qilishda o'ta muhimdir (ayollarning ishtirokisiz abort qonuniy taqiqlovlar o'tkazishni tasavvur qilish qiyin).

“International IDEA” onlayn vositasi veb saytining “GENDER QUOTAS DATABASE” bo'limida (<https://www.idea.int/data-tools/data/gender-quotas>) gender kvotalarini qo'llash bo'yicha bahslar, shuningdek, bunday kvotalar qo'llanilgan mamlakatlar statistikasi bilan tanishish mumkin.

Gender kvotalarini tasniflash

Shu bilan birga, gender kvotalarini joriy qilish, agar tanlangan gender kvotasi o'sha mamlakatdagi saylov tizimida qo'llaniladigan xususiyatlarga mos bo'lsagina, siyosatda gender tenglikka erishish uchun samarali vaqtinchalik chora-tadbirlardan hisoblanadi.

Shartli ravishda uch turga birlashtirilishi mumkin bo'lgan gender kvotalarini tatbiq qilishning ko'p yo'llari bo'lib, ularni shartli ravishda uch turga ajratish mumkin:

1) Band qilingan o'rinlar

(saylov organidagi o'rinlarning ma'lum soni ayollarga beriladi, ya'ni bu mandatlar uchun faqat ayollar g'olib bo'lishi mumkin);


2) Qonunchilikdagi gender kvotalari

(siyosiy partiyalar saylovda ma'lum foizdagi xotin-qiz nomzodlarni ko'rsatishga majbur bo'ladilar);

3) siyosiy partiyalar tomonidan mustaqil ravishda belgilanadigan ixtiyoriy gender kvotalari.

Joylarni band qilishning turli usullariga misollar

Band qilingan o'rinlar shaklidagi gender kvotalariga "super-okruglar", aylanma okruglar, faqat ayollar uchun maxsus umummilliy saylov okruglari, "eng yaxshi mag'lublar" kvotalari tizimi kabilarni misol qilish mumkin. Qoida tariqasida, band qilingan o'rinlar to'g'risidagi nizom Konstitutsiyada yoki davlatning boshqa asosiy qonunida belgilab qo'yiladi.



"Super-okruglar" tizimi mamlakatning butun hududi "oddiy" saylov okruglariga bo'linishi, ularda ayollar ham, erkaklar ham mandatlar uchun raqobatlashishi mumkinligi, shuningdek, mamlakatning butun hududi qayta "super-okruglar"ga (band qilingan o'rinlar soni bo'yicha) ajratiladi, unda mandatlar uchun faqat xotin-qizlar raqobatlashadilar. Super okruglar katta hududlarni va ko'proq saylovchilarni qamrab oladi. Saylovchilar ikkita saylov byulletenini oladilar.

Ugandada "super okruglar"ni qo'llash

Uganda Konstitutsiyasining 78-moddasiga ko'ra, Parlament quyidagilardan tashkil topgan:

A. okruglarga vakillik qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri ovoz berish yo'li bilan saylangan a'zolar;

B. hudud (bitta hudud bir necha okruglardan iborat) vakili bo'lgan a'zo xotin-qizlar;

C. Sonini Parlament aniqlab berishi mumkin bo'lgan, armiya, yoshlar, ishchilar, nogironlar va boshqa guruhlar vakillari a'zolari;

D. Parlament a'zolari tomonidan hali saylanmagan bo'lsa, vitse-prezident va vazirlar parlamentda ovoz berishni talab qiladigan har qanday masala bo'yicha ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan ex officio a'zolari bo'lishlari kerak.

Har besh yilda bir marta Parlament ushbu moddaning (B) va (C) moddalariga muvofiq shu vakilliklarni bunday vakillik va boshqa tegishli masalalarni saqlab qolish, ko'paytirish yoki bekor qilish maqsadida qayta ko'rib chiqishi kerak.

Ta'kidlash joizki, Uganda 11-chi chaqiriq parlamenti quyidagilardan iborat: 353 nafar okrug vakillari, 146 nafar hudud vakillari, 10 nafar Uganda xalq mudofaa kuchlari vakili, 5 nafar yoshlar vakili, 5 nafar nogironlar vakili, 5 nafar ishchilar vakili, 5 nafar keksa avlod vakili, shuningdek, 26 Ex Officio vakillari. Parlamentda jami 555 a'zo bor.⁶

O'z navbatida aylanma okruglar saylov okruglarining ma'lum bir sonida (masalan, 30%) faqat nomzod ayollar tomonidan ko'rsatilishi mumkinligini ko'rsatadi. Erkaklar nomzodlarini geografik joylashuvga ko'ra kamsitmaslik uchun, har bir keyingi saylovda band qilingan o'kruglar o'zgarib turadi. Band qilingan o'rinlarni to'ldirishning bunday tizimi Hindistonda mahalliy darajada qo'llaniladi (Hindiston misolida batafsil ma'lumotni ushbu uslubiy qo'llanmaning 7-bobda tanishishingiz mumkin).

Faqat ayollar uchun maxsus umummilliy saylov okrugi boshqa "oddiy" saylov okruglari bilan bir vaqtning o'zida faoliyat ko'rsatishi mumkin. To'ldirish usullari bu usul qo'llaniladigan mamlakatiga qarab farqlanishi mumkin. Misol uchun, o'rinlar g'olib bo'lgan partiyalarning parlamentda ularga berilgan o'rinlar soniga mutanosib ravishda xotin-qizlar bilan to'ldirishlari mumkin. Ushbu mandatlarga da'vogarlik talab qiladigan ayollarning ro'yxatlari saylovdan oldin saylovlarni boshqarish organlariga taqdim etiladi⁷. Bunda partiyalar ushbu nomzodlarni saylash uchun foydalanadigan usullar turli partiyaviy saylovlarga qarab bir-biridan farq qiladi.

Shu bilan bir qatorda muqobil chegara ahamiyatli tizimi "eng yaxshi mag'lublar" tizimi deb ataladi. Bunda mamlakat hududi bir necha saylov okrugiga bo'linadi va u okruglarda g'olib ko'pchilik ovoz berish yo'li bilan aniqlanadi. Biroq parlamentda "oddiy" okruglarda yutqazgan, lekin butun mamlakat bo'ylab o'z nomzodi bo'yicha eng yaxshi ko'rsatkichga erishgan xotin-qizlar egallashi kerak bo'lgan ma'lum sondagi o'rinlar band qilinadi.

Iordaniya

Iordaniya parlamentida 130 deputatlik o'rni bo'lib, ulardan 15 tasi xotin-qizlar uchun ajratiladi. Ushbu o'rinlarni taqsimlash uchun saylov komissiyasi o'z okrugida berilgan ovozlarni umumiy ovozlar soniga bo'lish orqali muvaffaqiyatsiz ayol nomzodlarning ovozlari foizini hisoblab chiqadi. Mamlakat bo'ylab eng ko'p ovoz olgan 15 nafar ayol nomzod, hech bir viloyatda ayollar uchun bir nechta ajratilgan joyni (51 qonunining 25 moddasi, 2012 parlament saylovi to'g'risida) olmasligi sharti bilan, parlamentga a'zolikka kiritiladi.⁸

⁶ <https://www.parliament.go.ug/page/composition-parliament>

⁷ Saylovlarni boshqarish organlari – mamlakatdagi saylov jarayoniga tayorlanish va uning o'tkazilishiga mas'ul bo'lgan organlar. Odatda, bunday saylovlarni boshqarish organlari deyilganda saylov komissiyalari ko'zda tutiladi.

⁸ <https://www.idea.int/data-tools/data/gender-quotas/country-view/!54/35>

Qonunchilikdagi gender kvotalariga misol

Nomzodlar uchun qonunchilikdagi gender kvotalariga ko'ra, siyosiy partiya o'z okrugidan, Konstitutsiya yoki qonun bilan belgilangan tartibda, belgilangan foizdagi jins vakillarining nomzodini tegishli saylov (masalan, siyosiy partiyaning saylov ro'yxatida jamida 30% xotin-qizlar bo'lishi kerak) ro'yxatida yoki alohida ro'yxatda (masalan, barcha bir mandatli saylov okruglarida partiyalar ko'rsatgan nomzodlarning umumiy sonida ayollar 30% dan kam bo'lmasligi) ko'rsatishi kerak. Qonunchilikdagi gender kvotalari nomzodlar uchun huquqiy zaruratni yaratib beradi va o'z nomidan ishtirok etishi uchun siyosiy partiyalarni xotin-qizlarni qidirishga undaydi. Nomzodlikka qo'yish uchun bunday kvotalar odatda xotin-qizlarning parlament a'ziligiga saylanishga kafolat bermaydi, eng kamida, ular uchun ovoz berish mumkin bo'ladi.

Ukraina

2019-yil dekabrda Ukrainada qabul qilingan Saylov kodeksida⁹, Ukraina xalq deputatligiga saylov umumdavlat saylov okruglarida deputatlikka nomzodlar yagona saylov ro'yxatlari bo'yicha proporsional tizim asosida amalga oshiriladi (Ukraina Saylov kodeksining 133, 154-moddalari) va ular orasidan partiyalar nomidan deputatlikka nomzodlarning hududiy saylov ro'yxatlari shakllantiriladi.

Umumdavlat va hududiy saylov ro'yxatlarini shakllantirishda partiya har beshta nomzodning ikkisi sifatida (birinchidan beshinchigacha, oltinchidan o'ninchi o'ringacha) ayol kishi nomzodini har bir saylov ro'yxatida bo'lishini ta'minlashi kerak.

Partiya tomonidan 5 ga bo'linmaydigan deputatlikka nomzodlar ko'rsatilgan umumdavlat va hududiy saylov ro'yxatlari shakllantirilgan taqdirda, oxirgi ikki/uch/to'rt nomzodga ro'yxatda ayol-erkak tartibiga rioya qilish talai yuklatiladi.

Misol uchun, agar partiya ro'yxatida 64 nafar nomzod bo'lsa, 60-songa qadar har besh nomzod orasida kamida ikkita ayol (yoki kamida ikkita erkak) bo'lishi kerak, bunda ularni qanday tartibda joylashtirishni partiyaning o'zi hal qiladi. So'nggi to'rt kishi ichidagi nomzodlar esa, jinsiga qarab, navbatma-navbat qo'yilishi kerak. Ya'ni, 61-raqamli nomzod erkak kishi bo'lsa, 62-raqam ayol kishi bo'lishi shart. 63 va 64-raqamli nomzodlar ham ana shu tartibda bo'ladi.

⁹ <https://zakon.rada.gov.ua/laws/show/396-20#n1556>



Qonunchilikdagi gender kvotalari nafaqat ayol nomzodlarning minimal sonini, balki ularning ro'yxatda joylashuvini (masalan, Ukrainada "zebra" shaklidagi kvota sifatida) ham belgilashi bilan yanada samarali bo'ladi. Bundan tashqari, nomzodlar uchun gender kvotalarining samaradorligi ularga rioya qilmaslik uchun tegishli jazo choralari qo'llanilganda yanada yuqori bo'ladi.

Ixtiyoriy gender kvotalariga misol

Partiyalarning ixtiyoriy kvotalar G'arbiy Yevropada ba'zi sotsialistik va sotsial-demokratik partiyalar tomonidan 1970-yillardan boshlab qo'llanila boshlandi, keyinchalik bu tajriba boshqa qit'alardagi partiyalar ham foydalandilar¹⁰. Partiyalarning ixtiyoriy kvotalari, agar siyosiy arenaning asosiy ishtirokchilari (saylovlarda barqaror ishtirok etadigan va jamiyat tomonidan yaxshi qo'llab-quvvatlanadigan siyosiy partiyalar) nomzod xotin-qizlarning sonini ixtiyoriy ravishda ko'paytirishi sababli (30- 40%) saylangan ayollar soni o'z-o'zidan ko'payib ketadi. Bunday ixtiyoriy kvotalar Germaniya, Norvegiya va Shvetsiyada keng tarqalgan. Boshqa mamlakatlardagi ayrim siyosiy partiyalar ham o'zlari uchun ixtiyoriy gender kvotalarini joriy etganlar, ammo bunday "yaxshi niyatli harakatlar" barcha siyosiy partiyalar uchun ham xos emas.

Avstraliya leyboristlar partiyasi

Avstraliyadagi leyboristlar partiyasi (ALP) 1970-yillarda keng jamoatchilik qo'llab-quvvatlamay qo'yib, saylovlarda mag'lubiyatlarga uchraganidan so'ng o'z qatorida ko'proq xotin-qizlarni jalb qilish zarurligini anglab yetdi. Bu partiya o'z strategiyasini o'zgartirishiga olib keldi. Xususan, 1981-yilda partiya xotin-qizlar barcha ichki partiya lavozimlarining 25 foizini egallashi kerak bo'lgan kvotani tasdiqladi, 1994-yilda esa barcha parlament saylovlarida xotin-qizlar nomzodlarini 35 foizga saylashga majbur qiluvchi ichki qoidalarni qabul qildi. 1996-yilda bu partiya xotin qizlarning yetakchi tashkiloti sifatida, Leyborist ayollar milliy tarmog'iga asos soldi.

1994-yildan 2010-yilgacha bo'lgan davrda nomzod xotin-qizlarning dastlabki saylash ko'rsatkichi 14,5 foizdan 35,6 foizgacha oshdi. 2012-yilning yanvaridan boshlab, bu partiya Nizomiga ko'ra, unda 40:40:20 (40 %- erkaklar, 40% - ayollar, 20% - istalgan jins vakillari) nosbatdagi kvota amal qiladi.

¹⁰ Krook M.L. Quotas for Women in Politics: Gender and Candidate Selection Reform Worldwide. Oxford University Press, 2010. - page 7. Electronic source: https://books.google.com.ua/books?id=RI N6xHugawAC&pg=PA6&lpg=PA6&dq=types+%D0%B7%D0%BO+reserved+seats+quotas&source=bl&ots=vp6jmHy3VN&sig=ACfU3UOJaOr3KaBPuUllhpKcnkOGDgnwxw&hl=ru&sa=X&ved=2ahUKewicxtiarlvAhW1_7sIHcd8APcQ6AEwEXoECBMQAw#v=onepage&q=types%20%D0%B7%D0%B0%20reserved%20seats%20quotas&f=false.

ALP o'z saflarida erkaklar va ayollarini teng hamkorlikda faoliyat yuritishiga intiladi. Ularning maqsadi – partiya tashkilotining barcha darajalarida, partiya tomonidan egallab turilgan davlat lavozimlarida erkak va ayollarning soni teng bo'lishidir. Bu maqsadga erishish uchun partiya 40:40:20 nisbatdagi ijobiy sa'y-harakatlarning majmuaviy modelini qabul qiladi. Unga ko'ra, yegishli lavozimlarning kamida 40% qismini istalgan jins vakillari egallashlari mumkin bo'ladi¹¹.

Saylov tizimlari va gender kvotalaridan birgalikda muvaffaqiyatli foydalanish

Kvota va saylov tizimlarining turli xil o'zaro birikmalari yaxshi natija berishi mumkinligi bilan bir qatorda saylanadigan xotin-qizlarning sonini ko'paytirishga yordam beradigan ramziy omil bo'la olishi ham mumkin. Quyida International IDEA onlayn vositasidan foydalanish natijasida olingan eng keng tarqalgan saylov tizimlari birikmalariga bir nechta misol keltirilgan.¹²

1. Ko'pchilik nisbiy/mutlaq ko'pchilik majoritar tizimi + faqat nomzod ayollar uchun band qilingan o'rinlar (qo'shimcha daraja yoki mamlakatni qamrab oluvchi super-okruglar):

Faqat xotin-qizlar o'z nomzodini qo'yishi mumkin bo'lgan darajani band qilish kvotada ko'zda tutilgan sondagi xotin-qizlarning saylanishini kafolatlaydi.

2. Nisbiy/absolyut ko'pchilik majoritar tizimi + ba'zi okruglardagi faqat nomzod ayollar uchun band qilingan o'rinlar:

Ular turli birikmada qo'llanilishi mumkin, lekin faqat mamlakatning ayrim qismlaridagina xotin-qizlarning saylashni kafolatlaydi. Band qilingan okruglarni almashib turish kabi qo'shimcha qoidalarni talab qiladi.

3. Nisbiy ko'pchilik majoritar tizimi + muayyan foiz xotin-qizlarning nomzodini ko'rsatishga asoslangan kvotalar tizimi:

Xotin-qizlarning saylanish imkoniyatini oshiradi, lekin uni kafolatlamaydi. Partiyalar ham o'zi mag'lubiyatga uchrashi ehtimoli bo'lgan okruglarda gender kvotasini saqlash maqsadida, o'zaro birgalikda xotin-qizlarning nomzodini qo'yishi mumkin.

4. Uncha katta bo'lmagan okruglarda partiya ro'yxatlari (PR List) bo'yicha vakillik + xotin-qizlar uchun tartibga solinadigan minimal foizli ayollarning nomzodini qo'yish, shuningdek, partiya ro'yxatlarida nomzod xotin-qizlarni joylashtirishning qoidalari (masalan, "zebra" tamoyili bo'yicha kvota (Ukraina misolida))

¹¹ Boshqa Maqola. Avstraliya parlamentining rasmiy saytida chop etilgan ayollar uchun saylov kvotalari: xalqaro sharh . Elektron resurs: https://www.aph.gov.au/About_Parliament/Parliamentary_Departments/Parliamentary_Library/pubs/rp/rp1314/ElectoralQuotas#_Toc372193127

¹² International IDEA veb-saytida saylov tizimlarining kombinatsiyasi va kvota turlarining interaktiv tekshiruvi taqdim etildi. Elektron resurs: <https://www.idea.int/data-tools/tools/interactive-electoral-systems-quota-types>

Bu birikma yopiq partiya ro'yxatlari yaxshi samara beradi. Agar ro'yxatlar ochiq bo'lsa, nomzodlar tartibi bunday ro'yxatlarga oldindan ayollarni kiritish tartibni buzgan holda o'zgarishi mumkin. Buncha katta bo'lmagan okruglaridagi partiya ro'yxati bo'yicha ovoz berish tizimlarida katta okruglarga qaraganda samarasizroq bo'lishi mumkin mumkin.

Saylov tizimlari va kvotalarning muvaffaqiyatli birikmalariga boshqa misollar ham mavjud.



4-BOB. GENDERGA YO‘NALTIRILGAN FAOLIYAT KESIMIDA SAYLOVLARNI REJALASHTIRISH SIFATIDAGI SAYLOV DAVRI

Saylov davrining uch bosqichi

O‘tkazilishning davriyligi demokratik saylovlarning zarur standarti hisoblanadi. Saylov jarayonining o‘zi esa, qator odatiy tartib-qoidalarini o‘z ichiga oladi. Shu sababli, saylov huquqi sohasidagi ko‘p olim va amaliyotchilar saylovlarga, har bir saylovning kelib chiqish mohiyatiga qarab emas, balki davriy istiqbol nuqtai nazaridan qarash kerakligini ta’kidlaydilar. Bunday yondashuv nafaqat tashkiliy ishlarini rejalashtirishda, balki saylov davrining har bir bosqichi sifatini yaxshilash imkoniyatini beradi.

Ushbu yondoshuvga yaqqol misol tariqasida, Yevropa komissiyasi, Demokratiya va saylovlar o‘tkazishga ko‘maklashish xalqaro instituti (International IDEA) va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) tomonidan barcha manfaatdor tomonlarga saylov jarayonida yuzaga keladigan turli muammolarning davriy xususiyatini tushunishga yordam beradigan “Saylov davri” – visual rejalashtirish va o‘zitish vositasi ishlab chiqildi.¹³

Saylov davri asosiy uch bosqichga bo‘linishi mumkin:



¹³ <https://aceproject.org/electoral-advice/electoral-assistance/electoral-cycle>

Shunisi e'tiborliki, saylov jarayonining ushbu bosqichlari aniq boshlanish va tugash nuqtasiga ega emas. Misol uchun, saylovdan keying bosqichning ba'zi chora-tadbirlari (masalan, saylov islohotlari) yangi saylov davrining saylovoldi bosqichi boshlanganda ham davom etishi mumkin. Bundan tashqari, ayrim tadbirlar muayyan bosqich uchun xos bo'lishi mumkin-u, lekin ular boshqa bosqichlar paytida ham o'tkazilishi mumkin. Masalan, quyi darajadagi komissiya a'zolarini o'qitish odatda "Ta'lim va ma'rifat" bosqichida o'tkazilishiga qaramay, bunday chora-tadbirlar saylov davrining boshqa bosqichlarida ham tashkil qilinishi mumkin.

Saylov davrining bosqichlari

Uchta asosiy bosqich, o'z navbatida, quyidagi qo'shimcha bosqichlarga bo'linadi:

Saylovoldi bosqichi:

- Huquqiy baza ustida ishlash
- Rejalashtirish
- Ta'lim va ma'rifat
- Saylovchilar, nomzodlar va kuzatuvchilarni ro'yxatga olish


Saylov bosqichi:

- Saylov kampaniyasi
- Saylov kuni va ovoz berish (ko'p kunlik ovoz berish)
- Natijalarni tasdiqlash

Saylovdan keyingi bosqich:

- Tahlil va islohotlar

Saylov davrining quyidagi sxemasida uning turli bosqichlari uchun xos bo'lgan faoliyat turlarini ko'rish mumkin.



Genderga yo'naltirilgan faoliyat kesimidagi saylov davri

Xotin-qizlarning, shuningdek, qaror qabul qilish va faol siyosiy hayot jarayonidan foydalanishga imkoniyati cheklangan boshqa toifadagi kishilarning huquqlarini ta'minlash uchun saylov davrining har bir bosqichlarini gender nuqtai nazaridan ko'rib chiqish tavsiya etiladi.

Saylovoldi bosqichda manfaatdor tomon vakolatlaridan kelib chiqib, quyidagilar tashkil qilinishi mumkin:

- gender tenglik sohasida xalqaro majburiyatlarga va ilg'or xalqaro amaliyotga muvofiqligi yuzasidan huquqiy bazani tahlil qilish;
- gender jihatlarini hisobga olgan holda saylov tizimini keng qamrovli isloh qilish (masalan, kvotalarni joriy etish va ularga rioya qilmaslik uchun sanksiyalarni qo'llash, ovoz berish tartib-qoidalarini qayta ko'rib chiqish, masalan, ko'zi ojizlar uchun saylov uchastkalaridan qulay

foydalanish, nogironlar, homilador ayollarga saylov uchastkalariga kirishda qulaylik yaratishga ustuvor ahamiyat berish);

- asosiy ijtimoiy tendentsiyalarni yaxshiroq tushunish va siyosatda xotin-qizlar, yoshlar va nogironlar uchun mavjud to'siqlarni yaxshiroq tushunish uchun gender va saylovlar bo'yicha umummilliy tadqiqotlar o'tkazish,

- saylovlarni boshqarish organlari hamda siyosiy partiyalar va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik o'rnatish;

- saylovlarni boshqarish, davlat xizmatchilari va saylov komissiyalari a'zolari bilan bog'liq ishlarga qabul qilishda erkaklar va ayollar, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun teng sharoitlar yaratish;

- byudjet tuzish yondashuvini qayta ko'rib chiqish (genderga yo'naltirilgan byudjetlashtirishni joriy etish);

- gender bo'yicha ma'lumotlarni to'plash (masalan, jinsi, yoshi bo'yicha ma'lumotlar);

- nomzodlarni ko'rsatish vaqtida gender tenglikni ta'minlash (masalan, ayol nomzodlarni ko'rsatish uchun zarur bo'lgan depozitni ko'rsatish yoki kamaytirish uchun kvotalar belgilash);

- siyosiy partiyalar va ommaviy axborot vositalari tomonidan axloq kodeksini imzolash;

- saylovchilar va nomzodlarni ro'yxatga olishning genderga ta'sirchan usulni ta'minlash;

- siyosatda gender tenglik bo'yicha ma'rifiy kampaniya o'tkazish;

- xotin-qizlar uchun saylov uchastkalarini tashkil etish imkoniyatlarini ko'rib chiqish;

- saylov uchastkalari va saylov materiallarining mavjudligini ta'minlash (axborot va to'g'ridan-to'g'ri saylov byulletenlari);

- xotin-qizlar, yoshlar va nogironligi bo'lgan insonlar salohiyatini oshirish, maxsus malaka oshirish treninglari, xotin-qizlar yetakchiligi bo'yicha treninglar, boshqa ta'lim tadbirlarini tashkil etish orqali;

- birinchi marta ovoz bergan yoshlar sonini oshirish uchun oliy o'quv yurtlari bilan ishlashni boshlash;

- boshqa chora-tadbirlar.

Saylov bosqichida manfaatdor tomonning vakolatidan kelib chiqib, quyidagilar tashkil qilinishi mumkin:

- gender tenglikni tartibga soluvchi normalarning samaradorligini ta'minlash (nomzod xotin-qizlarning harakatsizligi uchun sanksiyalar, turli jinsdagi nomzodlarning faoliyatini teng bo'lmagan darajada yoritish uchun ommaviy axborot vositalariga sanksiyalar),
- ayol saylovchilar, ayol nomzodlar uchun o'quv va ma'rifiy materiallarni tarqatish;
- nogironligi bo'lgan saylovchilar uchun o'quv va ma'rifiy materiallarni tarqatish (maxsus format va etkazib berish usuli);
- kuzatuvchilarni ro'yxatga olish va saylov kampaniyasini gender masalalari bo'yicha kuzatish tartib-taomillarini qayta ko'rib chiqish;
- uchastka saylov komissiyalari a'zolari uchun gender masalalarini hisobga olgan holda treninglar (masalan, nogiron kishilar bilan muloqot qilish asoslarini o'rgatish, imkoniyati cheklangan shaxslarning saylov kuni ovoz berishda ishtirok etishiga ko'maklashish);
- saylov kuni saylov uchastkalari va ularga kelish yo'llarini qo'riqlash;
- boshqa chora-tadbirlar.


Saylovdan keyingi bosqichida manfaatdor tomonning vakolatidan kelib chiqib, quyidagilar tashkil qilinishi mumkin:

- o'tgan saylovlarni tahlil qilish va baholashda gender jihatlarini kiritish;
- ma'lumotlar yig'ish natijalarini tahlil qilish;
- gender tenglikni ta'minlash chora-tadbirlarining samaradorligini baholash (masalan, kvota samaradorligi yoki ayol nomzodlarni ko'rsatish uchun depozitni kamaytirish);
- saylovlarni boshqarish oliy organi rivojlantirish strategiyasining yo'nalishi sifatida gender tenglikni kiritish;
- saylov jarayonida gender tenglikni ilgari surish bo'yicha tashkilotlararo ishchi guruhini tashkil etishni ko'rib chiqish;
- o'quv va ma'rifiy ishlarni davom ettirish;
- saylovchilarni ro'yxatga olish jarayoni va ovoz berish jarayoniga gender masalalarini kiritish;
- boshqa chora-tadbirlar.

Demokratiya va saylovlar o'tkazishga ko'maklashish xalqaro instituti (International IDEA) "Saylov davri" onlayn vositasini ishlab chiqdi (ingliz tilida foydalanish mumkin). Bu vosita manfaatdor tomonning vakolatlari va kelajakdagi aralashuvlarning yo'nalishiga qarab potentsial faoliyatni rejalashtirishga yordam beradi. Ushbu onlayn vositani quyidagi havoladan olish mumkin: <http://ecycle.idea.int>



Skinshot (ekran tasviri) genderga yo'naltirilgan sa'y-harakatlar asosidagi "saylovlarni boshqarish organlari"ni izohlash uchun quyidagi saytdan olingan: (30.07.2021): <http://ecycle.idea.int/gender>



Faol fuqarolar uchun tavsiyalar

Hozirda ham xotin-qizlarning “erkaklar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri raqobatdan voz kechishi yoki bolalarga qarash va ro‘zg‘or ishlari faqat ayollarning ishi bo‘lishi kerak”, deb hisoblaydigan ko‘plab mamlakatlar bor¹⁴. Jamiyatning gender rollari haqidagi yangi g‘oyalarni qabul qilishga tayyorligi xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashning asosiy qismi va ularning mahalliy hamjamiyatning, umuman butun mamlakatning siyosiy hayotida doimiy ishtirok etishining asosiy tarkibiy qismi bo‘lgani uchun, quyida faol ayollar uchun qaror qabul qilish jarayonlarida rasmiy va norasmiy ishtirok etishni rag‘batlantiradigan muhitni yaratish borasida ba‘zi tavsiyalar keltirilgan.

- **O‘z fikringizni himoya qiling va jamoat muhokamalarida ishtirok eting.**

“Do‘stlaringiz va oilangiz bilan maslahatlashish yoki inson huquqlari tashkiloti bilan hamkorlik qilish-qilmasligingizdan qat’i nazar, huquqlarni targ‘ib qilishning eng muhim usuli – bu o‘z so‘zingizni ayta olishingizdir. Xotin-qizlar huquqlari va gender tenglikni himoya qilish orqali siz ma‘lumotni tarqatishingiz va to‘siqlarni yengib o‘tishingiz mumkin”¹⁵.

Internet va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi tufayli o‘z fikrini aytish va uning boshqalar tomonidan eshutilishi nisbatan oson kechmoqda. Bu, ayniqsa, ayollarning zo‘ravonlik va tazyiqqa qarshi #MeToo (#MenHam) heshtagi ostidagi ijtimoiy kampaniya isbotladi. U hukumat, jamoat va xususiy tashkilotlardagi faoliyatda uchraydigan ko‘plab oshkor qilinmaydigan qoidalar va rasmiy axloq kodekslariga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi.

- **Bir-biringizni qo‘llab-quvvatlang.**

Gender tenglikka erishishda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirayotgan kishilar muhim ahamiyatga ega. Ayollar turli uyushmalarga birlashishlari, ma‘lumot almashishlari, bir-birlariga professional yordam berishlari (masalan, yuridik ma‘lumotga ega bo‘lgan ayollar sheriklarga maslahat berishlari yoki sud jarayonida yordam berishi mumkin), teng huquqlilikni qo‘llab-quvvatlaydigan ayollar uchun ovoz berishlari mumkin. Bundan tashqari, ayollar – agar kerak bo‘lsa va bunday imkoniyatga ega bo‘lsalar – nomzod xotin-qizlarga moddiy resurslar bilan yordam berishi, bunda saylov garovi yoki saylov kampaniyasining boshqa xarajatlari uchun mablag‘ yig‘ishlari mumkin.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida Emili ro‘yxati¹⁶

AQSHda 1908-yili Emili ro‘yxatining (EMILY’S List) 25 nafar asoschisi nomzodl xotin-qizlar saylov kampaniyalarini erkaklarga qarshi raqobat qiluvchi nomzodlar sifatida jiddiy qabul qilishlari uchun zarur boshlang‘ich mablag‘ga ega emasliklarini tushunib yetdilar. Ta‘sischilar o‘zlarining bevosita tanish-bilishlariga tayanib, o‘zlarining yangi tarmoqlari haqida xabardorlikni oshirish va ayollarni nomzod ayollarga pul berishga undash uchun xat yozish kampaniyasini boshladilar, ular hatto kichik xayr-ehsonlar ayol nomzodlarga muvaffaqiyatli ishtirok etish va saylanish uchun yordam berishi mumkinligini ta’kidladilar.

¹⁴ https://www.ndi.org/sites/default/files/Women_As_Change_Agents_Testimony_090610_0.pdf

¹⁵ <https://www.unwomen.org/en/news/stories/2018/3/compilation-eight-ways-you-can-be-a-womens-rights-advocate>

¹⁶ <https://www.unwomen.org/en/news/stories/2018/3/compilation-eight-ways-you-can-be-a-womens-rights-advocate>

Tashkil etilganidan buyon, Emili tarmog'i rivojlandi va hozirda 100 000 dan ortiq a'zoga ega ushbu tarmoq nomzod ayollar uchun millionlab dollar pul yig'dilar. Hozirgacha ular tanlash huquqini ilgari suruvchi 80 nafar Kongress a'zolari bo'lgan ayollar, 15 senator, 9 gubernator va mahalliy hokimlik organlaridagi yuzlab xotin-qizlarga saylanishda katta yordam berdilar. Ushbu tashkilot Qo'shma Shtatlarda boshqa ayollar tomonidan shu kabi tashkilotlarning ochilishiga ham katta turtki berdi.

- **Ish va ro'zg'or majburiyatlarini to'g'ri taqsimlang**

Ayollar uy ro'zg'or va farzandlarga qarash bo'yicha erkaklarga qaraganda taxminan ikki yarim barobar ko'proq haq to'lanmaydigan ish bilan mashg'ul bo'ladilar (O'zbekiston bo'yicha ma'lumotlar uchun 5-bobga qarang). Bu esa, ayollarning charchatishi, ko'proq kasalga chalinishi va jamiyatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish uchun to'liq imkoniyatga ega bo'lmasligiga olib keladi. Erkak ham, ayol ham bir xilda yashashi, dam olishi, ishlashi va o'zini kuchliroq, samaraliroq, kerakliroq va maqsadga intilganroq his qilishi uchun uy ishlarini boshqa oila a'zolariga, xususan, erkaklarga ham berishga harakat qiling.

Bundan tashqari, ayollarning ish sharoitlarini yaxshilash va shu orqali ular bajaradigan ishlarning sifatini oshirishga yordam berish genderga yo'naltirilgan ish joyini yaratishi mumkin, masalan, katta korxonalarda bolalar xonalarini tashkil qilish ayollar ishlaydigan tashkilotlarda ayollar hojatxonalari sonini ko'paytirish, oshxonalar menyusini qayta ko'rib chiqish va boshqa mehnat sharoitlarini ko'rsatish mumkin.

- **Mahalliy hamjamiyat hayotiga qiziqing va unda ishtirok eting**

Mahalliy hamjamiyat hayotida turlicha ishtirok etish mumkin: mahalliy saylangan deputat bilan bog'lanib, ularga jamiyatning boshqa vakillari oldida turgan muammolarni aytish, o'z fikrini bildirish, mahalliy tashkilot yoki siyosiy partiyada volontyor (ko'ngilli) bo'lib ishlash va boshqalar.

Mariya Miller, Buyuk Britaniya parlamenti a'zosi, xotin-qizlar va tenglik bo'yicha maxsus qo'mita raisi:¹⁷

"Kishilar faqat siyosatga qizqishlari yoki deputat bo'lishi uchungina emas, balki o'zi yashayotgan jamiyatni yaxshilashni o'ylab deputat bo'lishlari kerak. Shuning uchun bu sohaga qiziqing, unda ishtirok eting: maktab direktori bo'ling, shifoxonangizning kuzatuv kengashiga qo'shiling, jamoat kengashiga yoki mahalliy jamoat markazining mablag' to'plash qo'mitasiga a'zo bo'ling. Dastlab, vaziyatni o'zgartirishingiz mumkinligini anglab yeting.

Siyosat dunyoni yaxshi tomonga o'zgartirish kerak. Agar mahalliy hamjamiyatingizda biror narsani yaxshilashga erishgan bo'lsangiz, bu sizning siyosatda yanada faol ishtirok etishingiz uchun ishonchingizni yanada oshiradi".

¹⁷ <https://www.stylist.co.uk/visible-women/how-to-be-political-activist-women-representation-politics-uk/194235>

- **O‘z huquqlaringizni biling va ushbu bilimlarni boshqa odamlarga ulashing**

Xotin-qizlarning huquqlari haqidagi bilimlarini oshirish va yetakchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishdek xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini oshiradigan vosita yo‘q. Xalqaro va milliy nodavlat tashkilotlari tomonidan tashkil etiladigan salohiyatni oshirish bo‘yicha treninglarda ishtirok eting, qonunchilikdagi o‘zgarishlar va yangiliklarini kuzatib boring, bu haqda yaqinlaringiz va hamkasblaringizga aytib bering. Ayniqsa, gender yondashuvi (gender mainstreaming¹⁸) maktab va universitet o‘quv dasturlariga kiritish orqali yosh avlodga teng huquqli bilim va qadriyatlarni yetkazish muhim hisoblanadi.

Inkluzivlik va kompleks yondashuv

Ushbu bo‘limning xulosasi sifatida ijtimoiy hayotda xotin-qizlarning (shu jumladan, yosh ayollar va nogiron ayollar) fikri va ehtiyojlarini yanada chuqur hisobga olish uchun saylov jarayonining barcha manfaatdor tomonlari (saylovlarni boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, kuzatuvchilar, ommaviy axborot vositalari va saylovchilar) gender tenglikga demokratiyani mustahkamlashning markaziy va aniq ifodalangan maqsadi sifatida munosabatda bo‘lishi kerakligini ta’kidlash muhimdir. Bu yondashuv faqat jamiyatda gender tenglikni o‘rnatish haqidagi quruq gap bo‘lib qolmasligi kerak, balki ayollar jamiyatining “konsolidatsiyalangan ovozi”ni aniq ifodalaydigan siyosatda xotin-qizlarning haqiqiy targ‘ibotiga hissa qo‘shishi kerak.

Buning uchun, yuqorida eslab o‘tilgan manfaatdor tomonlar xotin-qizlarning real ehtiyojlarini tahlil qilish asosida saylov sohasidagi ta’lim dasturlarini ishlab chiqishlari zarur. Bunday tahlil jamoatchilik fikrini o‘rganish, saylov va gender tenglik bo‘yicha mutaxassislar bilan maslahatlar o‘tkazish kabilarni o‘z ichiga oladi. Bunday dasturlarni ishlab chiqish uchun mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida muayyan yutuqlarga erishgan xotin-qizlar jalb qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, odatiy treninglar izchil islohotlar kun tartibiga qaraganda kamroq samara beradi, shu sababli gender aralashuvining muhim mezonlari mukammal va uzluksiz bo‘lishi kerak.

¹⁸ Gender mainstreaming – erkaklar va ayollarning teng huquqliligini rag‘batlantirish uchun barcha institutsional siyosat va faoliyatlarga gender tenglik g‘oyasini joriy qilishning tashkiliy strategiyasi

5-BOB. DUNYODAGI XOTIN–QIZLARNING HOLATI: STATISTIKA

Gender statistikasi tushunchasi

O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi “gender statistikasi” tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi:¹⁹

Gender statistikasi - bu gender farqlarini aniqlash va ularni tizimli o‘rganish uchun barcha strategik yo‘nalishlarda ayollar va erkaklar haqiqiy holatini aks ettiradigan statistika.

Gender statistikasi inson haqidagi ma’lumotlar sirasiga kiradi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- 1) jins bo‘yicha ma’lumotlar;
- 2) gender masalalarini aks ettiruvchi statistika (gender ko‘rsatkichlari);
- 3) statistikaning barcha sohalariga gender yondashuvlarini joriy etish.

Gender statistikasi nima uchun kerak?

Global miqyosda gender statistikasi to‘plami ayollar va erkaklarning (shu jumladan, yosh, din, jismoniy holat va boshqa xususiyatlar bo‘yicha) sharoitlari va turli holatiga oid yashirin muammolarni aniqlash uchun zarurdir.

Buni hisobga olgan holda, gender statistikasi bir necha maqsadlarga xizmat qiladi:

- jamiyatda tenglik tamoyilini amalga oshirish sohalarida davlat hokimiyati organlari tomonidan strategik qarorlar ishlab chiqish;
- muvaffaqiyatli rejalashtirish, takomillashtirilgan maqsadlar, samarali monitoring va tegishli rivojlanish qarorlari va dasturlarining ta’sirini baholash;
- jinsi va boshqa tegishli xususiyatlar bo‘yicha kamsitishlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish;
- har xil yoshdagi va har xil qo‘shimcha xususiyatlarga ega erkaklar va ayollarning salohiyatini namoyon etishni qo‘llab-quvvatlash;
- adolat va tenglikni rag‘batlantirish, shuningdek, aholining barcha guruhlarining turmush darajasini yaxshilash;
- boshqa maqsadlar.

Shunday qilib, gender statistikasi barqaror va inklyuziv iqtisodiy o‘sish va rivojlanishga erishishga yordam beradi.

¹⁹ <https://gender.stat.uz/uz/umumiy-ma-lumotlar>

Dunyodagi ayollar holati

Bu bobda turli mamlakatlardagi ayollarning siyosatdagi mavqeini yaxshiroq tushunishga imkon beradigan bir qancha ko'rsatkichlar bo'yicha joriy gender statistikasi keltirilgan. Shu bilan birga, dunyodagi gender maqomini yaxshiroq tushunish uchun, Birlashgan Millatlar Tashkiloti veb-saytida Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'limida keltirilgan, hayotning boshqa sohalarida gender tenglik bo'yicha bir qancha dalillarni keltirishni ma'qul deb topdik.²⁰


- Dunyo bo'yicha 750 millionga yaqin xotin-qizlar 18 yoshga to'lmasdan turmushga chiqqanlar. Taxminan 200 millionga yaqin xotin-qizlar ayol jinsiy a'zolarini shikastlashga sabab bo'lgan tibbiy amaliyotlarni boshdan kechirishgan;
- Dunyoning 18 mamlakatida er o'z xotiniga ishlashni rasman taqiqlashi mumkin, 39 mamlakatda o'g'il bola va qiz bolaning merosga bo'lgan huquqlari har xil, 49 mamlakatda oiladagi zo'ravonlikni taqiqlovchi qonunlar yo'q;
- Har besh ayoldan biri, shu jumladan 15 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan ayollarning 19 foizi so'nggi 12 oy ichida yostiqdoshi tomonidan jismoniy va/yoki jinsiy zo'ravonlikka uchraganini ta'kidladi;
- Turmush qurgan yoki nikohsiz munosabatda bo'lgan 15 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan ayollarning yarmidan ko'pi (52 foizi) jinsiy aloqa qilish, kontratsepsiya vositalaridan foydalanish va sog'liqni saqlash to'g'risida o'z fikrini mustaqil aytib, qaror qabul qila oladi xolos;
- Dunyoning 100 dan ortiq davlatlari gender tengligini rag'batlantirish uchun byudjet mablag'larini hisobga oladi;
- 46 mamlakatda parlamentning kamida bitta palatasida ayollar ulushi 30 foizni tashkil qiladi;
- Rivojlanayotgan mamlakatlarining qariyb uchdan ikki qismi boshlang'ich ta'limda gender muvozanatiga erishgan.

Xotin-qizlarning siyosat va qaror qabul qilish jarayonlariga jalb qilish darajasi turli tashkilotlari tomonidan baholanadi. Misol uchun, 2021-yil 1-yanvar holatiga Parlamentlararo assotsiatsiya (IPU) tomonidan to'plangan ma'lumotlarni keltirish mumkin. Quyida jahon xaritasida turli ranglarda quyi palata qonunchilik organi tarkibidagi xotin-qizlar soni bo'yicha davlatlar reytingi ko'rsatilgan:

- | | |
|-------------------------|-------------------------|
| ■ - 50% dan ortiq | ■ - 10% dan 14.9% gacha |
| ■ - 40% dan 49.9% gacha | ■ - 5% dan 9.9% gacha |
| ■ - 35% dan 39.9% gacha | ■ - 0.1 dan 4.9% gacha |
| ■ - 30% dan 34.9% gacha | ■ - 0% |
| ■ - 25% dan 29.9% gacha | ■ - ma'lumot yo'q |
| ■ - 20% dan 24.9% gacha | ■ - alohida holat. |
| ■ - 15 dan 19.9% gacha | |

²⁰ <https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/gender-equality/>

Bu infografikaning asl nusxasi quyidagi havolada keltirilgan²¹. Ushbu qo‘llanmaning ilovalar bobida mamlakatlarning to‘liq reytingini ko‘rishingiz mumkin.



²¹ <https://www.unwomen.org/7media/headquarters/attachments/sections/library/publications/2021/women-in-politics-2021-en.pdf?la=en&vs=353>

O'zbekiston Respublikasining gender profili

O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish borasidagi 17 yutug'ini quyidagi havola orqali ko'rish mumkin: <https://country-profiles.unstatshub.org/uzb#goal-5>




Quyida ushbu saytdan 5-maqsad – “Gender tenglik” bo'yicha statistik ma'lumotlar keltirilgan.

2019-yilda 15 yoshdan oshgan ayollar va erkaklar uchun kontratsepsiya va oilani rejalashtirishning teng huquqliligini davlat qonunchiligida kafolatlash darajasi 67,0% ni tashkil etdi.

2018-yilda mobil telefonga ega ayollarning ulushi 58,9%ni tashkil etdi.

Parlamentning yagona yoki quyi palatasidagi xotin-qizlar salmog'i 2000-yilda 6,8% dan 2020-yilda 32% gacha oshdi.



Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining ba'zi ma'lumotlarini keltirish maqsadga muvofiqdir²²:

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Oliy Majlis Senatidagi mansabdor xotin-qizlarning (deputat, senator) salmog'i (Markaziy saylov komissiyasi ma'lumotlariga ko'ra)

	2018	2019	2020
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi	12.6%	32.0%	32.7%
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati	20.0%	24.7%	23.7%

Vazirliklar va davlat qo'mitalarida vazir (tenglashtirilgan) lavozimlarda ishlovchi xotin-qizlarning ulushi

2018 yil 1 aprel holatiga	2,9%
2019 yil 1 aprel holatiga	2,9%

²² <https://gender.stat.uz/uz/qo-shimcha-ko-rsatkichlar/ijtimoiy>

**Ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida xotin-qizlarning ulushi
(Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra)**

	2018	2019	2020
O'zbekiston Respublikasi	8,7%	3,2%	11,0%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	9,8	3,2	10,8
Andijon viloyati	7,3	2,5	6,7
Buxoro viloyati	7,2	2,9	11,6
Jizzax viloyati	9,0	2,3	10,3
Qashqadaryo viloyati	7,9	3,3	9,1
Navoiy viloyati	5,6	2,6	8,8
Namangan viloyati	5,8	2,1	6,5
Samarqand viloyati	5,4	2,2	6,1
Surxondaryo viloyati	7,6	3,1	6,7
Sirdaryo viloyati	5,4	2,0	8,0
Toshkent viloyati	9,2	7,3	10,8
Farg'ona viloyati	6,8	2,3	5,3
Xorazm viloyati	7,6	2,3	8,7
Toshkent shahri	6,1	5,4	8,7

Sudyalar orasida ayollar ulushi (Sudyalar oliy kengashi ma'lumotlariga ko'ra)

	2018	2019	2020
O'zbekiston Respublikasi	11,9%	12,4%	12,8%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	23	20,6	24,2
Andijon viloyati	9,5	10,8	9,9
Buxoro viloyati	4,3	5,8	6,8
Jizzax viloyati	1,9	1,7	1,7
Qashqadaryo viloyati	9,7	9,3	7,7
Navoiy viloyati	9,1	11,5	11,9
Namangan viloyati	18,2	17,3	18,1
Samarqand viloyati	9,6	11,4	11,2
Surxondaryo viloyati	6,7	6,4	6,1
Sirdaryo viloyati	9,1	7,1	7,3
Toshkent viloyati	15,9	16,5	16,7
Farg'ona viloyati	7,6	7,8	8,2
Xorazm viloyati	8,9	7,4	7,0
Toshkent shahri	17,7	20,2	20,3

Oliy ta'limni qamrab olish bo'yicha gender tenglik indeksi
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha haq to'lanadigan va to'lanmaydigan uy ishlarida
birgalikda o'tkazilgan soatlarning o'rtacha soni (2018 yil uchun uy xo'jaliklarini tanlab olish
ma'lumotlari)

	erkaklar	ayollar
Erkaklar va ayollar kesimida to'lanmagan uy ishi uchun sarflangan soatlarning o'rtacha soni	2,15 soat	5,27 soat
Erkaklar va ayollar kesimida to'lanadigan va to'lanmagan uy ishlarida birgalikda o'tkaziladigan soatlarning o'rtacha soni	7,75 soat	7,62 soat

Shuni ta'kidlash kerakki, indikatorlardan birining yuqori yoki past foizi davlat tizimidagi xotin-qizlarning maqomini aniq ko'rsatib bermaydi. Har qanday statistik ma'lumotlar, shuningdek, ularni aniqlash qiyin bo'lgan usul va ijtimoiy amaliyotlarni hisobga olgan holda, har tomonlama ko'rib chiqilishi kerak.




6-BOB. SIYOSATDA XOTIN-QIZLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH BO‘YICHA ENG YAXSHI XALQARO TAJRIBALAR

Siyosiy partiyalar tomonidan siyosatda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash

Ko‘p mamlakatlarda vaqtinchalik maxsus chora-tadbirlar amaldagi saylov tizimi bilan to‘g‘ri uyg‘unlashtirilganda xotin-qizlarni siyosatga jalb qilishda o‘zining yaxshi samarasini ko‘rsatdi. Biroq kvotalar, ayniqsa, gender stereotiplari yoki jamiyatdagi moliyaviy resurslarning barobar taqsimlanmasligi bilan bog‘liq barcha to‘siqlarni bartaraf qila olmaydi. Shu nuqtai nazardan, ayollar hayotning turli sohalarida, jumladan, biznes va siyosatda yetakchilik mavqeini to‘liq amalga oshirish uchun qo‘shimcha yordamga muhtoj.

Erkaklar va ayollarning siyosiy faoliyatda ishtirok etishi uchun eng keng tarqalgan 5 ta to‘siq



Bunday qo‘llab-quvvatlashni ayollarga, birinchi navbatda, siyosiy hayotning asosiy “darvoza-bonlari” sifatida siyosiy partiyalar ta‘minlashi kerak.

Siyosiy partiyalarning yetakchilari partiyaga a‘zo xotin-qizlar, nomzodlar va saylangan vakillar sonining ko‘payishi saylovlarda afzallik berishini sekin-asta tushunib yetadilar. Saylov jarayonida ishtirok etish uchun ixtiyoriy gender kvotalaridan tashqari “siyosiy partiyalar tomonidan barcha tuzilmalar va jarayonlarda gender tenglikni joriy etish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan ko‘plab mexanizmlar mavjud”.²³

Siyosiy partiyalar, boshqa faoliyatlar qatori quyidagilarni amalga oshirishlari mumkin:

- partiya yig‘ilishlarini xotin-qizlarga qulay va ularning talablariga javob beradigan joylarda hamda ular qatnashishi uchun qulay vaqtlarda o‘tkazish borasida ish tartiblarini qayta ko‘rib chiqish maqsadida, ichki tartiblar va faoliyatni tashkil qilishda gender tahlilini o‘tkazish²⁴;

²³ <https://www.osce.org/files/f/documents/6/6/230151.pdf>

²⁴ <https://www.osce.org/files/f/documents/6/6/230151.pdf>

- siyosiy partiya apparatida mas’ul lavozimlarga kvotalar joriy etish – bu xotin-qizlarga partiyaning qaror qabul qilish organlarida vakillik qilish imkoniyatini beradi. Shunisi e’tiborga loyiqki, bunday gender kvotalari gender tengligini ta’minlovchi oddiy kvotalarga qaraganda kengroq talqin qilinishi mumkin. Partiyalar, shu tarzda, yoshlarning siyosatdagi rivojlanishini yaxshiroq rag’batlantirishi mumkin, masalan, partiya prezidiumidan 30 yoshgacha bo’lgan partiya a’zolari uchun bir yoki bir nechta o’rinni band qilib qo’yish;
- Xotin-qizlarning fikrlarini umumlashtirish, muhim masalalar bo’yicha umumiy xulosani ishlab chiqish va ayollar o’rtasida birdamlikni oshirish, ularning siyosiy maydonda rivojlanishiga hissa qo’shish uchun alohida ichki partiya tuzilmalarini (masalan, ayollar huquqlari bo’yicha ishchi guruhi yoki partiyaning “ayollar qanoti”ni) tashkil qilish;
- partiyada saylov kampaniyasi yoki partiyaning boshqa muhim tadbirlari uchun ajratiladigan moliyaviy resurslardan ayollar va erkaklarning teng foydalanishni ta’minlash;
- partiya a’zolari uchun xulq-atvor qoidalari to’plamini (axloq kodeksini) ishlab chiqish, shuningdek, uni buzganlik uchun tegishli jazo choralarini joriy etish. Bunday qoidalar to’plami ish joyida jinsiy zo’ravonlikka qarshi kurashish masalalarini tartibga solishi, shuningdek, partiya a’zolari uchun seksistik ishoralar va xulosalarni taqiqlashda katta yordam beradi;
- xotin-qizlarning kasbiy rivojlanishiga ko’maklashish, shu jumladan, partiya byudjetining bir qismini ayollar uchun turli masalalar bo’yicha trening va seminarlarga yo’naltirish, tajriba almashish safarlari, sammit uchrashuvlari va boshqa tadbirlarga delegatlar sifatida jalb etishga ko’maklashish.

Hukumat va muxolifatni birlashtiruvchi fraksiyalararo birlashma

Ukraina parlamentida gender tenglikni targ’ib qilish va xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini yaxshilash, teng imkoniyatlar siyosatini maqsadga muvofiqlik va izchillik bilan ta’minlash, xotin-qizlar huquqlarini rag’batlantirish uchun qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat va fuqarolik sektorining sa’y-harakatlarini birlashtirish va Ukraina qonunchiligini Yevropa Ittifoqi qonunchiligiga moslashtirish jarayonida yordam berish maqsadida birinchi marta 2011-yil 6-dekabrda tashkil etilgan “Teng imkoniyatlar” fraksiyalararo birlashmasi 10 yildan buyon faoliyat yuritmoqda.

Bu fraksiyalararo birlashma “gender” qonun loyihalarini faol ishlab chiqmoqda, shuningdek, gender tenglik sohasidagi boshqa faoliyatlar tashabbusini ilgari surmoqda. Shuni ta’kidlash kerakki, 9-chaqiriq Ukraina parlamentidagi “Teng imkoniyatlar” birlashmasi tarkibiga hukumat tarafdori va muxolifat fraksiyalarning barcha vakillari kirgan.

YXHT DIHBNing “Siyosiy partiyalar faoliyatida xotin-qizlarning ishtirokini qo’llab-quvvatlash” nashrida xotin-qizlarni siyosiy partiyalar faoliyatiga jalb qilishning usullari bilan yaqindan tanishish mumkin. <https://www.osce.Org/files/f/documents/b/7/146301.pdf>



Boshqa manfaatdor tomonlarning siyosatdagi xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashiga misollar

Xotin-qizlarning qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etishdagi salohiyatini oshirishga yordam berishda, siyosiy partiyalardan tashqari, quyidagilar ham ishtirok etishlari mumkin

- hukumatlar

(gender tenglikni qonuniylashtirish, buning uchun turli darajadagi gender siyosatini amalga oshirishni nazorat qiluvchi maxsus davlat organlarini tuzish, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash uchun parlamentda tashkilotlararo va fraksiyalararo guruhlar tuzish, genderni yo'naltirilgan byudjetni ishlab chiqish tizimini joriy etish, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish orqali);

Ukrainada qonunchilik partiyalarni gender kvotasiga rioya qilishga qanday undaydi

Ukrainada ilk bor gender kvotasi normasi 2015-yilda qabul qilingan. Bunda, qonunchilik organi siyosiy partiyalarni gender kvotasini bajarishga rag'batlantirish choralari ko'zda tutgan. Masalan, agar partiyalar, saylov natijalariga ko'ra, parlamentdagi o'z fraksiyalarida har bir jins vakillarining ishtirokini kamida 30 foizlik ko'rsatkichga yetkazsa, ular davlat tomonidan siyosiy partiyalar o'rtasida teng taqsimlanadigan, siyosiy partiyaning nizomida ko'rsatilgan faoliyatini moliyalashtirishga ajratiladigan mablag'ning 10% miqdorida qo'shimcha moliyalashtiriladi ("Ukrainadagi siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Ukraina qonunining 17-5 -moddasiga muvofiq).

- ijtimoiy mas'uliyatli biznes

(ishxonadagi martaba o'sishi uchun teng imkoniyatlar yaratish, ishni tashkil etishga genderni yo'naltirilgan yondashuvlarni joriy etish, ishchilarning saylov kampaniyasi vaqtida o'z ish joylarini saqlab qolish orqali davlatning siyosiy hayotida ishtirok etish istagini qo'llab-quvvatlash orqali);

Coca-Cola treninglari

Xotin-qizlar ko'pincha yetarlicha moliyaviy resurslarga ega bo'lmasligi ularni siyosiy jarayonlarda qatnashish imkoniyatlarini cheklaydi, shuning uchun yetarli va barqaror moliyalashtirish (shu jumladan, mehnatga munosib haq to'lash) mavjudligi muhim muammo bo'lib qolmoqda. 2011-yildan buyon Coca-Cola kompaniyasi 200 mingdan ziyod kichik tadbirkor ayollarga ko'nikmalarini o'rgatish va kapitalga ega bo'lish orqali yordam berib kelmoqda²⁵. Garchi bu treninglar xotin-qizlarning siyosatdagi salohiyatini oshirishga qaratilgan bo'lmasa-da, ular xotin-qizlarga tobora ko'proq moliyaviy jihatdan mustaqil bo'lishga, natijada ijtimoiy sohada katta mustaqillikka erishishga imkon beradi.

²⁵ UN Women. Elektron resurs: <https://asiapacific.unwomen.org/en/news-and-events/stories/2021/03/more-women-leaders-in-business-the-best-way-to-boost-recovery-from-the-pandemic>

- Ommaviy axborot vositalari

(xotin-qizlar, jumladan deputatlikka nomzod va siyosatchi ayollarning faoliyatini yaxshiroq yoritish, bunda kamsitmaslik tamoyilini ilgari surish, deputatlikka nomzod va siyosatchi ayollarning seksistik tavsiflanishlari va baholanishlariga barham berish orqali);

Tanzaniyada ommaviy axborot vositalari uchun axloq kodeksi

Saylovlarda ommaviy axborot vositalari uchun axloq kodeksi saylovni yoritish tamoyillarini belgilab beradi. Ba'zi hollarda, ular jurnalistlarning gender stereotiplaridan voz kechishini, seksistik jumladan foydalanmaslikni hamda erkak va ayolning ehtiyojlari va manfaatlarisobga olgan holda reportajlar tayyorlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Tanzaniyada saylovlarni yoritish paytida ommaviy axborot vositalari uchun axloq kodeksi, 2010-yilda seminarga to'plangan bir guruh muharrirlar tomonidan qabul qilingan bo'lib, unda "Saylovni yoritish paytida ommaviy axborot vositalarining axloq qoidalari", "haqiqatan ham har qanday, shu jumladan irqi, jinsi, tili, dini", siyosiy yoki boshqa qarashlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi asosda kamsitish yoki zo'rvonlik tarafdori bo'lganlarning fikrlariga toqatsizlik ko'rsatish, jurnalistlar bunday qarashlarni aniq mazmunda taqdim etish va o'zlariga qarshi shunday fikr bildirilganlarning fikrlarini yetkazish uchun qo'lidan kelganicha harakat qilishi kerak.²⁶

- xalqaro va ixtisoslashgan nodavlat tashkilotlari

(hukumatlar, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa manfaatdor tomonlarga tartib-qoidalar ishlab chiqish bo'yicha o'quv kurslari, treninglar, maslahatlar shaklida texnik yordam ko'rsatish orqali)

Mashq qil, nomzodingni qo'y, g'olib chiq va boshqar (Train, Run, Win, and Lead)

2013-yilda Trinidad va Tobagodagi xotin-qizlar tashkilotlari assotsiatsiyasi ayollarga o'z mamlakatlarida siyosatning asosiy elementlari haqida ma'lumot berish uchun o'quv dasturini boshladi. "Mashq qil, nomzodingni qo'y, g'olib chiq va boshqar" nomli bu dastur xotin-qizlarni hukumatda kim nima uchun mas'ul ekanligi bilan tanishtirishi bilan bir qatorda ularga rahbarlik lavozimlarida to'liq ishtirok etishga va natijada o'zgarishlarga erishishga yordam beradi. Mashg'ulotlarning birinchi bosqichidan so'ng, ayollar mahalliy saylovlardagi avval erkaklar egallagan o'rinlarning yarmini qo'lga kiritishdi.²⁷

- ongli va faol fuqarolar

(xotin-qizlarga nisbatan hurmat va hamjihatlikni namoyon etish va siyosatda faol ayollar, xususan, gender tenglik qadriyatlarini e'tirof etish va oilalarda va ishda kamsituvchi amaliyotlarga barham berish).

²⁶ The Electoral Knowledge Resource. Elektron resurs: <https://aceproject.org/ace-en/topics/ge/ge7/gender-related-provisions-in-codes-of-conduct-for>

²⁷ Women Deliver. Elektron resurs: <https://womendeliver.org/investment/strengthen-womens-political-participation-decision-making-power/>

#Nebaba-Ukraina va ukrainaliklar siyosatda seksizmga qarshi

Ukrainada ko'pincha ba'zi siyosatchilarning seksistik so'zlari tufayli ommaviy axborot vositalarida janjallar yuzaga keladi. Bunday mulohazalar ayol hamkasblarga ham, umuman an'anaviy turmush tarziga ham tegishli bo'lishi mumkin. Masalan, Davosda Ukrainaning sobiq prezidenti Viktor Yanukovich sarmoyadorlarni Ukrainaga taklif qilib, shunday dedi: "havolar isiganda Ukraina shaharlarida ayollar kiyimlarini yechishni boshlaganda siz ajoyib go'zallikka guvoh bo'lasiz, buni ta'riflashga so'z ojiz". O'sha davrdagi ko'plab siyosatchi ayollar Ukrainaning bunday "reklama"sigamunusabatda bo'lishgan. Shunisi e'tiborliki, so'nggi paytlarda nafaqat siyosatchilar, balki davlatning oddiy fuqarolari ham ayollarga siyosatda shunchaki obyekt sifatida qarashga yo'l qo'yilmasligi haqida gapirishmoqda. Masalan, Ukrainaning hozirgi parlament a'zolaridan birining hamkasbi bilan suhbatida (matbuotchilar uchun xonada mikrofonlar yoqilganini bilmagan holda) seksistik mazmunda gapirganligi sabab ukrainalik xotin-qizlar va erkaklar ijtimoiy tarmoqlarda #nebaba xeshtegi asosidagi katta norozichiliklar bildirdilar.



Biznes va siyosatda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha maslahatlar

Forbes nufuzli nashri "Accendo Leadership Advisory Group" kompaniyasi asoschilaridan biri va hamkor rahbari Keren Di (Karen Dee) tomonidan biznesdagi rahbar xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha 6 tavsiyani nashr etgan bo'lib, bu tavsiyalar siyosiy sohada ham qo'llanilishi mumkin. Quyida o'sha maslahatlarning qisqacha mazmuni keltirilgan:

Ayollarga 80/20 qoidasini o'rganishga yordam bering – bu 80% maqsad/vazifaga erishish uchun 20% iqtidorni takomillashtirish deganidir. Tabiat (masalan, gormonlar darajasidagi farqlar) va tarbiya (o'gil va qiz bolalar tarbiyasidagi farqlar) ba'zi ayollarning kamroq xavf-xatarga bo'lgan moyilligini qo'llab-quvvatlaydi va shu bilan mukammallikka bo'lgan ehtiyojni rag'batlantiradi. Shu narsa bilan kurashishda ayollarga yordam berish, kamroq sa'y-harakat bilan ularning samaradorligini oshirishga ko'maklashadi.

Xotin-qizlarni, garchi ular barcha talablarga javob bermasa ham, mas'uliyatli ishga o'zini taklif qilishlarini qo'llab-quvvatlang. Hatto juda malakali ayollar ham o'z ishlarining natijalariga ishonchsiz bo'lishadi. Ana shu o'ziga ishonmaslik ularni yanada yuqoriroq ko'tarilishdan oldin, ish tavsifidagi barcha parametrlarga to'liq javob berishi kerak, degan fikrga olib kelishi mumkin (bunday talablar, ko'rsatilgan ishni bajarishga bo'lgan haqiqiy ehtiyoji emas, shunchaki yuqori bir mezonni bo'lishi mumkin – muallif eslatmasi).

Xotin-qizlarning hissiy aql-zakovati va “nozik ko'nikmalari”dan foydalaning. Ayniqsa, ularni “xonada kayfiyatni seza olish” va / yoki munosabatlarni chuqurlashtirish qobiliyatini talab qiladigan muzokaralarga taklif qiling. Bu ayollarga muvaffaqiyat qozonishi va e'tiborga tushishi, shuningdek, kompaniyaga ham foydali bo'lishi mumkin.

Ayollarni o'qiting va ular bilan biznes, strategiya va moliya haqida (qonunchilik va siyosat haqida – muallifning eslatmasi) suhbatlashing. Yetakchilar ayollarga ustozlik qilish va tashkilotning ana shu uch sohasi bilan tanishish orqali ularni o'rta boshqaruv tizimidan yuqori boshqaruvga o'tishga yordam beradi²⁸. Syuzan Kolantuono o'zining TedTalk'dagi “Ish bo'yicha, ehtimol, siz olmagan maslahatlar” nomli ma'ruzasida rahbarlik lavozimlaridagi gender tafovutini bartaraf etish uchun zarur bo'lgan biznes, strategik va moliyaviy zukkolikni “zaruriy 33% ko'nikma” deb ataydi.

Ayollarning qarashlarini bilish uchun ularni suhbatga faol jalb qiling. Ayrim ayollar so'zni bo'lish va qarshi fikr aytishga ikkilanadilar, chunki ularning ijtimoiy tarbiyasi bu xatti-harakatlarni qabul qilmasligi mumkin. Rahbarlar ana shu narsani tushuna olsalar, ayollarga yordam berishlari, o'z fikrini ayta olishga undashlari va bu bilan atrofdagilarning ularni anglashlariga sababchi bo'lishlari mumkin.

Ish va shaxsiy hayot o'rtasidagi muvozanatni rag'batlantiring va qo'llab-quvvatlang. Professional ayollar, ayniqsa farzand katta qilayotgan ayollar, ba'zida aybdorlik hissi bilan kurashadilar. Bu mukammallikka bo'lgan ehtiyojni susaytiradi. Bu aybdorlik hissi ularning ichini kemirishi va ish joyini tark etishiga olib kelishi mumkin. Ayollarni ishda ham, hayotda ham muvaffaqiyat qozonish uchun nima kerakligini so'rash orqali ularni qo'llab-quvvatlang. Ehtimol, ba'zi to'siqlarni olib tashlash (masalan, yosh bolali ayollarga ish soatlarini ularga qulay tarzda moslashtirish va ish kunini boshqa xodimlarga qaraganda bir soat oldin boshlash va tugatish imkoniyati ularning ish samarasiga yordam berishi mumkin) ularni biznes va siyosiy jarayonlarda muvaffaqiyatga erishishlariga sabab bo'lishi mumkin).²⁹

²⁸ https://www.ted.com/talks/susan_colantuono_the_career_advice_you_probably_didn_t_get?language=ru

²⁹ <https://www.forbes.com/sites/forbescoachescouncil/2019/08/13/six-tips-to-support-women>

leaders/?sh=44cdf25477d8

7-BOB. RUANDA VA HINDISTON: GENDER KVOTALARINING SIYOSATGA TA'SIRIGA MISOLLAR

Ruanda muvaffaqiyati

Ruanda Respublikasi – Sharqiy Afrikadagi kichik ko'p millatli davlat bo'lib, aholisi 13 millionga yaqin hisoblanadi. 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Ruanda parlamentdagi ayollar soni bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi. Ruanda Respublikasi qonun chiqaruvchi organining quyi palatasida 49 ta ayol va 31 ta erkak deputat faoliyat ko'rsatadi, bu 61,3% va 38,7% ni tashkil qiladi.



Ta'kidlash joizki, Ruanda aholisi tarkibi 88% xutular, 11% tutsilar va 1% Tva pigmeylaridan iborat. Afsuski, 1994-yilda Ruandada genotsid sodir bo'lgan: unda natijada radikal xutular 800 mingga yaqin tutsilar va tinchliksevar xutularni qirib tashlaganlar. Tirik qolgan jabrlanuvchilarning aksariyati og'ir jismoniy shikastlanish (shu jumladan, zo'rlash) va psixologik zo'rvonlikka uchragan xotin-qizlarni tashkil qilardi. Shu genotsid radikal hutularni mag'lub etgan Ruanda vatanparvarlari fronti (RPF) faoliyatini kuchaytirdi.

RPF o'tish davri hukumatini tuzib, 1994-yildan 2003-yilgacha (genotsiddan keyingi ilk saylovlar) qonunchilik islohotlari jarayoniga rahbarlik qildi. Aynan shu davrda ayollar siyosiy kun tartibida faol ishtirok eta boshladilar, bu esa ko'plab genderga oid qonunlar va tuzatishlar qabul qilinishiga olib keldi. Bunga misol qilib, erkaklar va ayollarning meros huquqlarini tenglashtirish yoki zo'rlashni eng og'ir jinoyatlardan biri sifatida jazolash kabilarni ko'rsatish mumkin.³⁰

Umumiy sa'y-harakatlar natijasida Konstitutsiyaning yangi matni ishlab chiqilib, unda parlamentdagi 30% o'rinlarni band qilish ko'rinishidagi minimal gender kvotasi qonun asosida mustahkamlab qo'yildi. Shu tarzda, quyi palatadagi 80 ta o'rindan 24 tasi xotin-qizlar uchun band qilindi va ular mahalliy xotin-qizlar kengashlari hay'ati tomonidan saylanadigan bo'ldilar. Shuningdek, saylov partiyalarining vakillariga 53 ta mandat beriladi, ular umummilliy saylovlarda proporsional saylov tizimi orqali saylanadi. Partiyalar har ikki jinsdagi nomzodlarni ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, palatadagi ikkita o'rin Yoshlar milliy kengashi vakillari uchun va bir o'rin nogironlar uyushmalari federatsiyasi vakili uchun ajratilgan. Gender kvotalari mahalliy kengashlar darajasida ham belgilangan. Shuningdek, ayollar muammolarini nazorat qilish uchun boshqa vazirliklarning gender markazlari bilan ishlaydigan Gender va ayollarning holatini takomillashtirish vazirligi tashkil etildi. Vazirlik, shuningdek, barcha darajadagi hukumat amaldorlari va keng jamoatchilikni jalb qilish orqali ayollarni siyosiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga harakat qiladi.

³⁰ https://www.inclusivesecurity.org/wp-content/uploads/2013/05/Bringing-Women-into-Government_FINAL.pdf

1990-yillarning boshlarida Ruanda Parlamentida ayollar o'rtacha 18% o'rinni egallagan bo'lsalar, genotsiddan keyingi 2003-yildagi ilk saylovlarda Ruanda Konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgartirishlardan so'ng ayollar 49% o'ringa ega bo'lishdi. Bu nafaqat gender kvotasi, balki ko'proq ayollarni siyosatda faol ishtirok etishga undovchi ma'rifiy tadbirlar va siyosiy partiyalarning saylov ro'yxatlaridagi nomzodlarga band qilinmagan bo'sh joylar uchun kurashi mevasi bo'ldi.

2021-yilga kelib, ruandalik ayollar Parlamentning quyi palatasidagi 61,3% o'rinlarni egallabgina qolmay, ijro etuvchi hokimiyatda ham 42% o'rinni egallagan. Sud tizimida esa ayollar deyarli 50%ni tashkil qiladi³¹.

Swissinfo'ga bergan intervyusida, Ruanda Gender bo'yicha monitoring boshqarmasi vakili shunday deydi: "Hozirda xotin-qizlar hokimiyatda o'z jinsi vakillarini ko'rishni istashlari juda muhim va bu ayollar ham davlatni boshqarish jarayonlarida ishtirok etishi mumkinligiga ishonchli dalildir". Moliyaviy resurslarning cheklanganligi (saylov kampaniyasi bilan bog'liq bukletlar chiqarish, targ'ibot-tashviqot ishlari davomida yo'l xarajatlari va shu kabilarni moliyalashtirish uchun mablag' yetishmasligi), ta'limdagi kamchiliklar va gender stereotiplari kabi muammolar bugungi kunda xotin-qizlar uchun Ruanda siyosatida davom etayotgan to'siqlar sifatida e'tirof etiladi³².

So'zimiz adolatli bo'lishi uchun shuni ta'kidlash kerakki, hukumat safida xotin-qizlarning vakilligi darajasi yuqori bo'lishi ayollar masalalarini siyosiy kun tartibiga kiritishning kafolati hisoblanadi, lekin bu rivojlangan demokratiyaning belgisi emas. Sobiq harbiy Pol Kagame 2000-yilda Ruanda prezidenti etib saylandi va 20 yildan ortiq hokimiyatda qolmoqda. U 2017-yilda unchalik ishonib bo'lmaydigan 98,8% ovoz bilan prezidentlikka qayta saylandi. Xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlari va Human Rights Watch kabi inson huquqlari tashkilotlari Pol Kagameni muntazam ravishda inson huquqlarini buzayotgani va muxolifatni ta'qib qilayotgani uchun tanqid qiladilar. 2015-yildagi referendum unga yana yetti yillik muddatga saylanish huquqini bergani uchun, balki u yana uzoqroq hukmronlik qilishi mumkin³³.

Hindistondagi ayollar mahalliy siyosatga ta'sir ko'rsatmoqda

Hindiston, chindan ham, ziddiyatli holatlarga boy mamlakat hisoblanadi. Bu yerda erkin va demokratik saylovlar o'tkazilayotgan bir paytda, jamiyatda odam ajratishning kasta tizimi qoldiqlari hali ham saqlanib qolmoqda. Hindiston saylov komissiyasi esa, Hindistonning har bir fuqarosiga ovoz berish huquqini amalga oshirishni ta'minlashni o'z maqsadlaridan biri sifatida e'lon qigan. Bu yerda umummilliy saylovlar ko'p kunlik ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi va bir saylovchi (masalan, tarki dunyo qilgan ruhoni) uchun saylov materiallari fillar, mototsikllar, aravalar, vertolyotlar, poezdlar yoki hatto piyoda yetkazib beriladi.

Siyosat sohasidagi gender tarkib ham chalkashliklarga to'la. Masalan, Hindiston shtatlaridan birining qonun chiqaruvchi organiga kirgan ilk ayol (doktor Muthulakshmi Reddi) 1927-yilda kiritilgan³⁴. Indira Gandhi birinchi bosh vazir ayol sifatida dastlab 1966-yildan 1977-yilgacha, keyin esa, 1980-yildan 1984-yilgacha hukumatni boshqargan. Agar terrorchilik harakati

³¹ <https://www.unwomen.org/en/news/stories/2018/8/feature-rwanda-women-in-parliament>

³² <https://www.unwomen.org/en/news/stories/2018/8/feature-rwanda-women-in-parliament>

³³ https://www.swissinfo.ch/eng/women-in-politics_-can-switzerland-learn-from-rwanda-on-gender-equality-/44867312

³⁴ S.Y. Quraishi. An Undocumented Wonder: The Making of the Great Indian Elections / Rupa Publications India, 2014 -

tufayli u fojiali o'lim topmaganda, balki yana uzoqroq vaqt hukumatda qolishi mumkin edi. Hindistonning o'n ikkinchi prezidenti Pratibha Patil ham ayol kishi edi. Shu bilan birga, bugungi kunda mamlakatning parlamentidagi ayollarning umumiy salmog'i kichikligicha (540 deputatlik o'rnidan 78 tasi, ya'ni 14,4%) qolmoqda, ayollar vaqti-vaqti bilan ayrim shtatlarning qonun chiqaruvchi organlarini boshqaradilar va ba'zi vazirlik lavozimlarini egallaydilar.

Ayollarning yuqori siyosatdagi ishtirokining past darajasi, ayniqsa, XX asrning 90-yillariga qadar hind ayollari, ko'pincha yuqori lavozimda ishlash uchun ko'prik vazifasini o'tovchi mahalliy siyosatda deyarli hech qanday tajribaga ega bo'lmaganligi bilan izohlanadi. Buning sababi sifatida savodxonlik darajasining pastligi, madaniy stereotiplar va ayollar uchun urf-odatlar bilan belgilanadigan ijtimoiy xulq-atvor darajasi kabilarni ko'rsatish mumkin.

1976-yilda Hindistondagi xotin-qizlar maqomi bo'yicha qo'mita tashkil etilishidan oldin, siyosatda gender tenglik masalasi kun tartibida ham yo'q edi. Ushbu qo'mitaning ish faoliyati natijalari bo'yicha gender kvotasi orqali ayollarning (ayniqsa, mahalliy hokimiyat va davlat darajasida) parlamentdagi vakilligini oshirish tavsiya etildi. 1988-yilgi "Xotin-qizlar uchun milliy istiqbolli reja"ga ko'ra, saylov organlarida xotin-qizlar uchun kvotalar 30% bo'lishi kerak edi. Xotin-qizlar tashkilotlarining faollari, birinchi navbatda, bunday kvotani panchayatlarga (qishloq kengashlariga) qo'llashni talab qildilar"³⁵.

Parlamentda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalar 1993-yilda Konstitutsiyaga 73 va 74-o'zgartirish kiritishga ovoz berib, panchayatlar uchun 30% lik gender kvotalari ko'rinishida vaqtinchalik maxsus choralar ko'rishni qo'llab-quvvatladilar (shuni ta'kidlash joizki, ba'zi shtatlarda xotin-qizlar uchun ajratilgan joylar nisbatan ko'proq edi)³⁶. Keyinroq, jamiyatda shtatlarning qonun chiqaruvchi organlari va Hindiston parlamenti uchun gender kvotasini joriy etish to'g'risida munozaralar bo'lib o'tdi, ammo ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan qonun loyihasi qo'llab-quvvatlanmadi, chunki parlamentariylar turli kastalarga mansub ayollar o'rtasidagi nisbatni qanday hisoblash haqida kelisha olmadilar.

Endi esa, panchayat ayol rahbarlari sifatli sog'liqni saqlash va ta'lim, bu xizmatlardan foydalanishni moliyalashtirish kabi masalalarni muhokama qilish orqali o'z jamoalarida faol ishtirok etmoqdalar. Ularning ishtiroki natijasida bu jamoalarda ayol rahbar tomonidan tashkillashtirilgan ichimlik suvi loyihalari yetakchilari erkak kishi bo'lgan jamoalarga qaraganda 62% ga oshdi³⁷.

Ta'kidlash joizki, Hindiston saylov komissiyasi ham saylovchi xotin-qizlar huquqlaridan xavotirda ekanini bildiradi. Saylovlarni boshqaruvchi bu organ barcha saylovchilarni ro'yxatga olishga ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Buning uchun "saylov uchastkalari noziri" lavozimi joriy qilinib, bu nozirlar u yoki bu saylov uchastkasi hududida uyma-uy yurib, barcha saylovchilarning ro'yxatga olinganligini tekshirishlari shart etib belgilandi. Hindiston Saylov komissiyasi 17-rahbari S.Y. Qurayshiyning fikriga ko'ra, 824 000 nafar bu kabi nozirlarning aksariyati xotin-qizlar bo'lganligi sababli, saylovchilar ro'yxatida ayollar soni keskin darajada oshdi.³⁸

³⁵ <http://www.hyno.ru/tom2/344.html>

³⁶ https://www.imemo.ru/index.php?page_id=1248&file=https://www.imemo.ru/files/File/magazines/meimo/08_2014/10-NIKIFOROVA.pdf

³⁷ <https://womendeliver.org/investment/strengthen-womens-political-participation-decision-making-power/>

³⁸ S.Y. Quraishi. An Undocumented Wonder: The Making of the Great Indian Elections / Rupa Publications India, 2014 - page



PTI, elektron resurs: <https://www.newindianexpress.com/nation/2019/may/22/lok-sabha-polls-2019-bihar-records-substantial-female-turnout-highest-in-katihar-1980306.html>

Bundan tashqari, ovoz berish kunidagi tartib-qoidalar qayta ko'rib chiqildi, xususan, yuzini "yopadigan" ayollar ko'p bo'lgan ba'zi hududlarda "ayollar" saylov uchastkalarini tashkil qilish imkoniyati ko'rib chiqildi. Bunday uchastkalarda faqat ayollar faoliyat ko'rsatib, ularda faqat ayol saylovchilar ovoz berishga ruxsat berildi. Boshqa saylov uchastkalarida esa, ayol saylovchilarga ayol komissiya a'zolari tomonidan xizmat ko'rsatish imkoniyati berildi, bu yerda ayol saylovchilar ovoz berishdan so'ng barmog'ini o'chmas siyohga botirishni ayol yoki erkak komissiya a'zosi bajarishini tanlashi mumkin edi. Shuningdek, ovoz berish uchastkasida saylovchilar bir erkak – ikki ayol – bir erkak – ikki ayol tartibida navbatda turganligi aniqlandi. Bu esa, ayollarning saylov uchastkasidan tezroq uyga qaytishlari va bu jarayonning xavfsizligini boshqa ayollarga yetkazishi hamda ularni borib ovoz berish huquqidan foydalanishga undadi.

QO‘SHIMCHA RESURSLAR VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI³⁹

Adabiyotlar

- Демократия и гендерное равенство: роль Организации Объединенных Наций/ International IDEA, UN, UNDP, UN Women.–2013/ Elektron resurs: <https://www.idea.int/sites/default/files/publications/democracy-and-gender-equality-RU.pdf>
- Инклюзивные избирательные процессы: руководство для избирательных органов, направленное на поощрение гендерного равенства и участие женщин в выборах / “BMT-ayollar” va BMTTD (UNDP). - 2015 / elektron resurs: https://www.undp.org/content/dam/undp/library/Democratic%20Governance/2015%20UNDP_UNWomen%20EMB%20Gender%20Mainstreaming%20Guide-R-LR.pdf
- ACE Electoral Knowledge Network saytida to‘plangan gender va saylov materiallari. Elektron resurs: <https://aceproject.org/ace-en/topics/ge/>
- Права женщин и гендерное равенство: Справочник для национальных правозащитных институтов / YXHT. - 2012/elektron resurs: <https://www.osce.org/files/f/documents/a/d/102872.pdf>
- Продвижение участия женщин в Политике в регионе ОБСЕ: Сборник Передовых Практик / YXHT. – 2016 / elektron resurs: <https://www.Osce.org/files/f/documents/6/6/230151.pdf>
- Повышение роли и расширение участия женщин в политических процессах: аналитический обзор и рекомендации для стран Центральной и Восточной Европы и Содружества Независимых Государств / elektron resurs: UNDP. - 2010 / https://www.un.org/ru/development/surveys/docs/women_polit_participation.pdf
- Руководство к действию. Руководство по политическому участию женщин / Women’s Learning Partnership for Rights, Development, and Peace (WLP). -2010/elektron resurs: https://learningpartnership.org/sites/default/files/resources/pdfs/LTA_Russian_Textandcover.pdf
- Advancing gender equality in political decision-making. Good Practices / European Institute for Gender Equality. - 2016 / elektron resurs: fayl:///C:/foydalanuvchilar/foydalanuvchi/Dropbox/UNDP%20Proposal/mh0415104enn_0.pdf
- Empowering Women for Stronger Political Parties: A Guidebook to Promote Women’s Political Participation, NDI, UNDP, February 2012.Elektron resurs: <https://www.ndi.org/sites/default/files/Empowering-Women-Full-Case-Study-ENG.pdf>

Manbalar

<http://ecycle.idea.int/> - “Saylov davri” onlayn vositasi.

<https://elearning.ec-undp-electoralassistance.org> – gender va saylov bo‘yicha onlayn kurslar
www.idea.int/data-tools/data/gender-quotas -gender kvotalari haqida ma’lumotlar bazasi
www.iknowpolitics.org - siyosatda xotin-qizlarni targ‘ib qilish bo‘yicha bilimlar bazasi
www.quotaproject.org / - gender kvotalari haqida ma’lumotlar bazasi

<https://www.osce.org/odihr/gender-equality> - YXHTning gender tenglik va siyosati bo‘yicha materiallari to‘plami.

³⁹ Ushbu ro‘yxat to‘liq emas.

1-Ilova. Dunyo mamlakatlari parlamentlari yagona yoki quyi palatasida xotin-qizlar soni bo'yicha Parlamentlararo assotsiatsiyasining reytingi

Mamlakatlar parlamentdagi ayollarning foiz nisbatlari kamayish tartibida joylashtirilgan. Bu ma'lumotlar 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra taqdim etiladi.

O'rni	Mamlakat	Quyi palatasi			Yuqori palatasi		
		% A	Xotin-qizlar	O'rinlar	% A	Xotin-qizlar	O'rinlar
50 dan 65 gacha %							
1	Ruanda	61.3	49	80	38.5	10	26
2	Kuba	53.4	313	586	-	-	-
3	Birlashgan Arab Amirliklari	50.0	20	40	-	-	-
40 dan 49.9 gacha %							
4	Nikaragua	48.4	44	91	-	-	-
5	Yangi Zelandiya	48.3	58	120	-	-	-
6	Meksika	48.2	241	500	49.2	63	128
7	Shvesiya	47.0	164	349	-	-	-
8	Grenada	46.7	7	15	15.4	2	13
9	Andorra	46.4	13	28	-	-	-
10	Boliviya	46.2	60	130	55.6	20	36
11	Finlyandiya	46.0	92	200	-	-	-
12	Janubiy Afrika	45.8	182	397	41.5	22	53
13	Kosta-Rika	45.6	26	57	-	-	-
14	Norvegiya	44.4	75	169	-	-	-
15	Namibiya	44.2	46	104	14.3	6	42
16	Ispaniya	44.0	154	350	40.8	108	265
17	Senegal	43.0	71	165	-	-	-
18	Argentina	42.4	109	257	40.3	29	72
"	Mozambik	42.4	106	250	-	-	-
20	Belgiya	42.0	63	150	45.0	27	60
"	Shveysariya	42.0	84	200	26.1	12	46
22	Belarus	40.0	44	110	25.0	15	60
"	Portugaliya	40.0	92	230	-	-	-
35 dan 39.9 gacha %							
24	Avstriya	39.9	73	183	42.6	26	61
25	Daniya	39.7	71	179	-	-	-
"	Islandiya	39.7	25	63	-	-	-
27	Fransiya	39.5	228	577	34.8	121	348
28	Ekvador	39.4	54	137	-	-	-
29	Shimoliy Makedoniya	39.2	47	120	-	-	-
"	Serbiya	39.2	98	250	-	-	-

31	Efiopiya	38.8	212	547	32.0	49	153
32	Sharqiy Timor	38.5	25	65	-	-	-
33	Burundi	38.2	47	123	41.0	16	39
34	Tanzaniya Birlashgan Respublikasi	36.7	141	384	-	-	-
35	Gayana	35.7	25	70	-	-	-
"	Italiya	35.7	225	630	34.4	110	320
30 dan 34.9 gacha %							
37	Uganda	34.9	160	459	-	-	-
38	Dominika	34.4	11	32	-	-	-
39	Kamerun	33.9	61	180	26.0	26	100
"	Buyuk Britaniya	33.9	220	650	27.9	221	792
41	Salvador	33.3	28	84	-	-	-
"	Monako	33.3	8	24	-	-	-
"	Niderlandiya	33.3	50	150	38.7	29	75
"	San Marino	33.3	20	60	-	-	-
45	Nepal	32.7	90	275	37.9	22	58
"	O'zbekiston	32.7	48	147	23.0	23	100
47	Zimbabve	31.9	86	270	43.8	35	80
48	Lyuksemburg	31.7	19	60	-	-	-
49	Germaniya	31.5	223	709	36.2	25	69
50	Avstraliya	31.1	47	151	51.3	39	76
"	Xorvatiya	31.1	47	151	-	-	-
25 dan 29.9 gacha %							
52	Angola	29.6	65	220	-	-	-
"	Kanada	29.6	100	338	49.5	46	93
54	Albaniya	29.5	36	122	-	-	-
"	Singapur	29.5	28	95	-	-	-
56	Surinam	29.4	15	51	-	-	-
57	Latviya	29.0	29	100	-	-	-
58	Yamayka	28.6	18	63	38.1	8	21
59	Janubiy Sudan	28.5	109	383	12.0	6	50
60	Polsha	28.3	130	459	24.0	24	100
61	Filippin orollari	28.0	85	304	29.2	7	24
62	Dominik Respublikasi	27.9	53	190	12.5	4	32
63	Estoniya	27.7	28	101	-	-	-
"	Litva	27.7	39	141	-	-	-
65	Laos	27.5	41	149	-	-	-
66	Misr	27.4	162	591	13.3	40	300
67	Mali[1]	27.3	33	121	-	-	-
"	AQSH	27.3	118	433	25.0	25	100
69	Bolgariya	27.1	65	240	-	-	-

“	Qozog‘iston	27.1	29	107	18.8	9	48
71	Afg‘oniston	27.0	67	248	27.9	19	68
72	Isroil[2]	26.7	32	120	-	-	-
“	Sloveniya	26.7	24	90	10.0	4	40
“	Vietnam	26.7	132	494	-	-	-
75	Kape Verde	26.4	19	72	-	-	-
“	Iroq	26.4	87	329	-	-	-
77	Tunis	26.3	57	217	-	-	-
78	Bosniya va Gertsegovina	26.2	11	42	20.0	3	15
“	Jibuti	26.2	17	65	-	-	-
“	Peru	26.2	34	130	-	-	-
“	Trinidad va Tobago	26.2	11	42	40.6	13	32
82	Jazoir	26.0	120	462	5.7	8	141
83	Niger	25.9	43	166	-	-	-
84	Sent-Kits va Nevis	25.0	4	16	-	-	-
“	Turkmaniston	25.0	31	124	-	-	-
20 dan 24.9 gacha %							
86	Xitoy	24.9	742	2975	-	-	-
87	Moldova	24.8	25	101	-	-	-
88	Chernogoriya	24.7	20	81	-	-	-
89	Somali	24.4	67	275	24.1	13	54
90	Urugvay	24.2	24	99	32.3	10	31
91	Tojikiston	23.8	15	63	22.6	7	31
92	San-Tome va Prinsipi	23.6	13	55	-	-	-
93	Lesoto	23.3	28	120	21.2	7	33
94	Chexiya	23.0	46	200	14.8	12	81
“	Ekvatorial Gvineya	23.0	23	100	16.7	12	72
96	Malavi	22.9	44	192	-	-	-
“	Seyshel orollari	22.9	8	35	-	-	-
98	Armeniya	22.7	30	132	-	-	-
“	Slovakiya	22.7	34	150	-	-	-
100	Chili	22.6	35	155	25.6	11	43
101	Irlandiya	22.5	36	160	40.0	24	60
“	Panama	22.5	16	71	-	-	-
103	Venesuela [3]	22.2	37	167	-	-	-
104	Gretsiya	21.7	65	300	-	-	-
105	Kambodja	21.6	27	125	16.1	10	62
“	Fiji	21.6	11	51	-	-	-
“	Keniya	21.6	75	347	31.8	21	66
108	Kipr	21.4	12	56	-	-	-

109	Gonduras	21.1	27	128	-	-	-
110	Indoneziya	21.0	121	575	-	-	-
111	Bangladesh	20.9	73	350	-	-	-
112	Ukraina	20.8	88	423	-	-	-
113	Gruziya/Gurjiston	20.7	31	150			
114	Marokash	20.5	81	395	11.7	14	120
115	Mavritaniya	20.3	31	153	-	-	-
116	Pokiston	20.2	69	342	19.2	20	104
117	Barbados	20.0	6	30	42.9	9	21
"	Mavrikiy	20.0	14	70	-	-	-
15 dan 19.9 gacha %							
119	Saudiya Arabistoni	19.9	30	151	-	-	-
120	Gvatemala	19.4	31	160	-	-	-
121	Koreya Respublikasi	19.0	57	300	-	-	-
122	Kolumbiya	18.8	32	170	21.0	22	105
123	Togo	18.7	17	91	-	-	-
124	Ruminiya	18.5	61	329	18.4	25	136
125	Ozarbayjon	18.2	22	121	-	-	-
"	Sent Vinsent va Grenadina	18.2	4	22	-	-	-
127	Madagaskar	17.9	27	151	11.1	2	18
128	Koreya Demokratik Respublikasi	17.6	121	687	-	-	-
129	Mongoliya	17.3	13	75	-	-	-
"	Turkiya	17.3	104	600	-	-	-
131	Qirg'iziston [4]	17.1	20	117	-	-	-
132	Zambiya	16.8	28	167	-	-	-
133	Komor orollari	16.7	4	24	-	-	-
"	Gvineya	16.7	19	114	-	-	-
"	Sent-Lyusiya	16.7	3	18	27.3	3	11
136	Gabon	16.2	23	142	17.4	17	98
137	Liviya	16.0	30	188	-	-	-
138	Rossiya Federatsiyasi	15.8	71	450	17.1	29	170
"	Tayland	15.8	77	489	10.4	26	250
140	Chad	15.4	24	156	-	-	-
141	Myanma [5]	15.3	65	425	14.4	31	216
142	Braziliya	15.2	78	513	12.4	10	81
143	Bahrayn	15.0	6	40	22.5	9	40
"	Paragvay	15.0	12	80	17.8	8	45
10 dan 14.9 gacha %							
145	Butan	14.9	7	47	16.0	4	25
"	Malayziya	14.9	33	222	13.6	9	66

147	Gana	14.6	40	275	-	-	-
148	Hindiston	14.4	78	540	11.2	27	241
149	Gvineya-Bisau	13.7	14	102	-	-	-
150	Malta	13.4	9	67	-	-	-
151	Bagama orollari	12.8	5	39	43.8	7	16
"	Kongo Demokratik Respublikasi	12.8	64	500	21.1	23	109
153	Vengriya	12.6	25	199	-	-	-
154	Beliz	12.5	4	32	35.7	5	14
155	Syerra-Leone	12.3	18	146	-	-	-
156	Lixtenshteyn	12.0	3	25	-	-	-
157	Iordaniya	11.5	15	130	12.3	8	65
158	Kot-d'Ivuvar	11.4	29	255	19.2	19	99
159	Kongo	11.3	17	151	18.8	13	69
160	Suriya Arab Respublikasi	11.2	28	250	-	-	-
161	Antigua va Barbuda	11.1	2	18	52.9	9	17
162	Liberiya	11.0	8	73	3.3	1	30
163	Botsvana	10.8	7	65	-	-	-
164	Nauru	10.5	2	19	-	-	-
165	Samoa	10.0	5	50	-	-	-
5 dan 9.9 gacha %							
166	Yaponiya	9.9	46	464	23.0	56	244
167	Qatar	9.8	4	41	-	-	-
168	Svazilend	9.6	7	73	40.0	12	30
169	Bruney	9.1	3	33	-	-	-
170	Markaziy Afrika Respublikasi [6]	8.6	12	140	-	-	-
"	Gambiya	8.6	5	58	-	-	-
172	Benin	8.4	7	83	-	-	-
173	Solomon orollari	8.0	4	50	-	-	-
174	Tonga	7.4	2	27	-	-	-
175	Kiribati	6.7	3	45	-	-	-
176	Burkina-Faso	6.3	8	127	-	-	-
"	Palau	6.3	1	16	7.7	1	13
"	Tuvalu	6.3	1	16	-	-	-
179	Marshal orollari	6.1	2	33	-	-	-
180	Eron	5.6	16	286	-	-	-
181	Shri-Lanka	5.4	12	223	-	-	-
0.1 dan 4.9 gacha %							
182	Livan	4.7	6	128	-	-	-

183	Maldiv orollari	4.6	4	87	-	-	-
184	Nigeriya	3.6	13	360	7.3	8	109
185	Ummon	2.3	2	86	17.4	15	86
186	Quvayt	1.5	1	65	-	-	-
187	Yaman [7]	0.3	1	301	2.7	3	111
							0%
188	Mikroneziya (Federativ Shtatlari)	0.0	0	14	-	-	-
“	Papua Yangi Gvineya	0.0	0	111	-	-	-
“	Vanuatu	0.0	0	52	-	-	-

*** Hech qanday ma'lumot yo'q**

Eritreya

**** Istisno holatlar**

Gaiti (2021-yilning 1-yanvar holatiga quyi palata faoliyat ko'rsatmaydi. Yuqori palatada 10 ta a'zodan birortasi ham ayol kishi emas).

Sudan (2021-yilning 1-yanvar holatiga parlament faoliyat ko'rsatmaydi)

[1] Mali: ma'lumotlar 2020-yilning dekabrda tayinlangan O'tish davri Milliy kengashi ma'lumotlariga mos keladi.

[2] Isroil: parlament 2020-yil dekabr oyida tarqatib yuborildi va yangi saylovlar hali o'tkazilmadi. Ma'lumotlar avvalgi qonun chiqaruvchi organ ma'lumotlariga ga mos keladi.

[3] Venesuela. Bu raqamlar 2015-yilda saylangan qonun chiqaruvchi organ a'zolari soniga mos keladi. 2020-yilgi saylov ma'lumotlari yo'q.

[4] Qirg'iziston: 2020-yil oktyabr oyida bo'lib o'tgan saylovlar haqiqiy emas deb topildi. Bu raqamlar yangi chaqiruvni kutayotgan qonun chiqaruvchi organ axborotiga mos keladi. Saylov 2021-yili o'tkazilishi kerak.

[5] Myanma: bu raqamlar 2020-yilgi saylovlardan so'ng saylangan yoki tayinlangan a'zolar bo'yicha axborotga mos keladi. Yangi parlament harbiy to'ntarish tufayli 2021-yilning fevral oyidagi birinchi majlisini o'tkaza olmadi.

[6] Markaziy Afrika Respublikasi: axborotni e'lon qilish vaqtida 2020-yil dekabr oyida boshlangan saylovlar hali ham davom etmoqda edi. Bu raqamlar avvalgi qonun chiqaruvchi organ axborotiga mos keladi.

[7] Yaman: ma'lumotlar 2003-yilda saylangan vakillar palatasi tarkibiga va 2001-yilda tayinlangan maslahat Kengashi axborotiga mos keladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro hujjatlar

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi⁴⁰

(1948-yil, 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko'rsatmasi orqali qabul qilingan va e'lon qilingan.)

2-modda

Har bir inson irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tabaqasi yoki boshqa holatidan qat'i nazar, ushbu Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquq va barcha erkinlikka ega bo'lishi zarur.

Bundan tashqari, inson mansub bo'lgan mamlakat yoki hududning siyosiy, huquqiy yoki xalqaro maqomidan, ushbu hudud mustaqilmi, vasiymi, o'z-o'zini idora qiladimi yoki boshqacha tarzda cheklanganligidan qat'i nazar biror bir ayirmachilik bo'lmasligi kerak.

20-modda

1. Har bir inson tinch yig'inlar o'tkazish va uyushmalar tuzish huquqiga ega.
2. Hech kim biror bir uyushmaga kirishga majbur qilinishi mumkin emas.

21-modda

1. Har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillar vositasi orqali o'z mamlakatini boshqarishda qatnashish huquqiga ega.
2. Har bir inson o'z mamlakatida davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega.
3. Xalq irodasi hukumat hokimiyatining asosi bo'lishi lozim; bu iroda davriy va soxtalashtirilmagan, yalpi va teng saylov huquqidan, yashirin ovoz berish yo'li bilan yoki ovoz berish erkinligini ta'minlaydigan boshqa teng qiymatli shakllar vositasida o'tkaziladigan saylovlarda o'z aksini topishi lozim.

Fuqaroviy va va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt⁴¹

(1966-yil 16-dekabrda Bosh Assambleyaning 2200 A (XXI) qarori bilan qabul qilingan)

2-modda

1. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi har bir davlat o'z hududida turgan va o'z yurisdiksiyasi ostida bo'lgan barcha shaxslarning ushbu Paktda e'tirof etilgan hukuqlarini hech bir ayirmachiliksiz, jumladan, irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodidan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, tug'ilishi yoki o'zga holatidan qat'i nazar hurmat qilish va ta'minlash majburiyatini oladi.

⁴⁰ https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declhr.shtml

⁴¹ https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/pactpol.shtml

2. Agar bu narsa hali mavjud qonun hujjatlarida yoki boshqa choralari orqali nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu Paktda ishtirok etuvchi har bir davlat o'zining konstitutsiyaviy tartib-taomillariga va ushbu Pakt qoidalariga muvofiq ushbu Paktda e'tirof etilgan huquqlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lishi mumkin bo'lgan shunday qonun hujjatlarini yoki boshqa tadbirlarni qabul qilish uchun zarur choralarni ko'rish majburiyatini oladi.

3. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi har bir davlat o'z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi:

a) ushbu Paktda tan olingan huquqlari va erkinliklari buzilgan har qanday shaxsni, agar bu buzilish rasmiy sifatda harakat qilgan shaxslar tomonidan sodir etilgan bo'lsa ham, huquqiy himoyaning samarali vositasi bilan ta'minlash;

b) ana shunday himoya talab qiluvchi har qanday shaxs uchun yuridik himoya vakolatli sud, ma'muriy yoki qonun chiqaruvchi hokimiyatlar tomonidan yoki davlatning huquqiy tizimida nazarda tutilgan boshqa vakolatli organlar tomonidan ta'minlashi va sud orqali himoyalaniishi imkoniyatini rivojlantirish;

c) huquqiy himoya vositalari berilganda, vakolatli hokimiyatlar tomonidan buning qo'llanilishini ta'minlash.

3-modda

Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar erkaklar va ayollar uchun ushbu Paktda nazarda tutilgan barcha fukarolik va siyosiy huquqlardan bir xilda foydalanilishini ta'minlash majburiyatini oladilar.

21-modda

Tinch yig'inlarga bo'lgan huquqlar tan olinadi. Bu huquqdan foydalanishda hech bir cheklashga yo'l qo'yilmaydi. Qonunga muvofiq qo'yilgan va demokratik jamiyatda davlat yoki jamiyat xavfsizligi, jamoat tartibi, aholi salomatligi va ma'naviyatini muhofaza etish yoki boshqa shaxslarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish uchun zarur bo'lgan cheklashlar bundan mustasno.

22-modda

1. Har bir inson boshqalar bilan uyushish erkinligi huquqiga, shu jumladan kasaba uyushmalar tashkil etish erkinligi va o'z manfaatlarini himoya qilish uchun shunday uyushmalarga kirish huquqiga ega.

2. Bunday huquqlardan foydalanish hech qanday cheklanmaydi, qonun bilan nazarda tutilganlari va demokratik jamiyatda davlat yoki jamiyat xavfsizligi, jamoat tartibi manfaatlarini uchun, aholi salomatligi va axloqini muhofaza etish yoki boshqa shaxslarning huquq va erkinligi himoyasi uchun zarur bo'lganlari bundan mustasno. Ushbu modda qurolli kuchlar va politsiya tarkibiga kiruvchi shaxslar uchun shu huquqdan foydalanishda qonuniy cheklashlar joriy etilishiga to'siq qilmaydi.

3. Ushbu moddadagi hech narsa Xalqaro Mehnat Tashkilotining 1948-yilgi Konvensiyasida ishtirok etuvchi davlatlarga uyushmalar erkinligi va huquqini himoya qilish borasida, mazkur konvensiyada nazarda tutilgan kafolatlarga zarar yetkazib qonun hujjatlari qabul qilish yoki ushbu kafolatlarga ziyon yetkazilgan holda qonun qabul qilish huquqini bermaydi.

25-modda

Har bir fuqaro 2-moddada ko'rsatib o'tilgan hech bir kamsitishsiz va asoslanmagan cheklashsiz quyidagi huquq hamda imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak:

- a) ham bevosita, ham erkin saylangan vakillar orqali davlat ishlarini yuritishda ishtirok etish;
- b) yalpi teng saylov huquqi asosida, yashirin ovoz berish orqali o'tkaziladigan va saylovchilarning erkin xohish-irodasini ta'minlaydigan chinakam davriy saylovlarda ovoz berish va saylanish; .
- c) o'z mamlakatida umumiy tenglik shartlarida davlat xizmatiga kirish.

26-modda

Barcha kishilar qonun oldida tengdirlar va hech bir kamsitishsiz qonun orqali teng himoya qilinish huquqiga egadirlar. Bu borada har qanday turdagi kamsitish qonun bilan taqiqlab qo'yilishi va qonun barcha shaxslarga hech bir kamsitishsiz, jumladan irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy va boshqa e'tiqodi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, tug'ilishi (nasl-nasabi)dan va boshqa holatidan qati nazar kamsitishga qarshi teng va samarali muhofazani kafolatlashi kerak.

Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi konvensiya⁴²

(Bosh Assambleyaning 1952-yil 20-dekabrda 640 (VII) qarori bilan qabul qilingan)

1-modda

Ayollar barcha saylovlarda, hech qanday kamsitishsiz, erkaklar bilan teng sharoitlarda ovoz berish huquqiga ega.

2-modda

Ayollar milliy qonunchilikda belgilangan tartibda, hech qanday kamsitishsiz, erkaklar bilan teng sharoitlarda saylanish huquqiga ega.

3-modda

Ayollar erkaklar bilan teng sharoitlarda, hech qanday kamsitishsiz, milliy qonunchilikda belgilangan tartibda barcha davlat va jamoat xizmati lavozimlarini egallash va ularni amalga oshirish huquqiga ega.

⁴² https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/women_politrights.shtml

Ayollarga nisbatan kamsitishni bartaraf etish to'g'risidagi deklaratsiya⁴³

(BMT Bosh Assambleyasining 1967-yil 7-noyabrdagi 2263 (XXII) qarori bilan qabul qilingan)

1-modda

Xotin-qizlarga nisbatan erkaklar bilan tengligini inkor etish yoki cheklashga olib keladigan kamsitish o'z mohiyatiga ko'ra adolatsizlik hisoblanadi va u inson qadr-qimmatiga qarshi jinoyatdir.

2-modda

Xotin-qizlarni kamsitadigan amaldagi qonunlar, urf-odatlar, qoidalar va amaliyotlarni bekor qilish, erkaklar va ayollarning teng huquqliligi uchun yetarli huquqiy himoyani o'rnatish uchun barcha zaruriy choralar ko'rilishi zarur, xususan:

- a) erkaklar va ayollar tengligi tamoyili konstitutsiyada aks ettirilishi yoki boshqa qonun bilan kafolatlanishi kerak;
- b) Birlashgan Millatlar Tashkiloti va ixtisoslashtirilgan idoralarning ayollarga nisbatan kamsitishni bartaraf etishga oid xalqaro hujjatlari ratifikatsiya qilinishi yoki unga qo'shilishi va ular imkon qadar tezroq to'liq bajarilishi kerak.

3-modda

Xotin-qizlarni kamsitish g'oyasiga asoslangan har qanday xurofotni yo'q qilish, shunday urf-odatlarini va boshqa barcha amaliyotlarga barham berish bo'yicha jamoatchilik fikrini tayyorlash va milliy yo'nalishlarni belgilash uchun barcha choralar ko'rilishi zarur.

4-modda

Xotin-qizlar erkaklar bilan teng ko'rilishi, jumladan quyidagi sohalarda ular kamsitilmasligi uchun barcha choralar ko'rilishi kerak.

- a) saylovda ovoz berish huquqi va ommaviy saylangan organlarga saylanish huquqi;
- b) barcha davlat referendumlarida ovoz berish huquqi;
- v) davlat xizmatiga kirish huquqi va barcha ijtimoiy funksiyalarni bajarish huquqi.

Mazkur huquqlar qonun bilan kafolatlangan bo'lishi kerak.

Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida konvensiya⁴⁴

(Bosh assambleyaning 34180-sonli qaroriga asosan 1979-yil 18-dekabrda qabul qilingan)

Ushbu Konvensiyaning ishtirokchi-davlatlari quyidagilar to'g'risida kelishib oldilar:

⁴³ https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/women_discrimination.shtml

⁴⁴ https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/cedaw.shtml

1-modda

Mazkur Konvensiyaning maqsadi o'laroq "xotin-qizlarning kamsitilishi" tushunchasi, har qanday farq jinsiy belgilariga ko'ra istisno qilish, cheklash, tan olmaslik, yo'qqa chiqarish yoki bo'shashtirishga yo'naltirilgan, ayollar foydalanayotgan yoki amalga oshirayotgan har qanday siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqaroviy va boshqa sohada oilaviy sharoitidan qati nazar erkak va ayollarga tenglik asosida inson huquqlari va asosiy erkinliklar berilishini anglatadi.

2-modda

Ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlar kamsitilishining barcha shakllarini qoralab, zudlik bilan barcha tegishli usullar orqali xotin-qizlar kamsitilishiga barham berish siyosatini yurgizishga kelishadilar va shu maqsadda quyidagi majburiyatlarni oladilar:

a) erkaklar bilan ayollar o'rtasidagi tenglik tamoyilini, agarda bu hozirgacha qilingan bo'lmasa, milliy Konstitutsiyaga va boshqa tegishli qonunlarga kiritish hamda qonun va boshqa tegishli vositalar yordamida ushbu tamoyilni amaliyotga joriy etishni ta'minlash;

b) xotin-qizlarning har qanday kamsitilishini ta'qiqlovchi tegishli qonunchilik va boshqa choralarni ko'rish, zarur bo'lganda sanksiyalarni qo'llash;

c) erkaklar bilan tenglik asosida ayollarning huquqlari yuridik jihatdan himoyalaniшни o'rnatish, vakolatli milliy sudlar va davlat muassasalarining yordamida xotin-qizlarning har qanday kamsitilishiga qarshi ularning samarali himoya qilinishini ta'minlash;

d) xotin-qizlarning kamsitadigan biron-bir xatti-harakatlarni amalga oshirishdan tiyilish, davlat organlari va muassasalari ushbu majburiyatga muvofiq faoliyat ko'rsatishlariga kafolat berish;

e) biron-bir shaxs, tashkilot yoki korxonadan xotin-qizlar kamsitilishini bartaraf etish uchun barcha tegishli choralarni ko'rish;

f) xotin-qizlarni kamsituvchi mavjud qonunlar, qarorlar, urf-odatlar va amaliyotni o'zgartirish yoki bekor qilish uchun barcha tegishli choralarni, shu jumladan qonunchilik choralarni ko'rish;

g) xotin-qizlarni kamsitishdan iborat bo'lgan o'zining jinoyatchilikka oid qonunlarining barcha moddalarini bekor qilish.

3-modda

Ishtirokchi-davlatlar erkaklar bilan tenglik asosida xotin-qizlarning inson huquqlari hamda asosiy erkinliklarini ro'yobga chiqarishlari va ulardan foydalanishlarini kafolatlash maqsadida xotin-qizlarning har tomonlama rivojlanishini va taraqqiyotini ta'minlash uchun barcha sohalarda, xususan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda barcha tegishli choralarni, shu jumladan qonunchilik choralarni ko'radilar.

7-modda

Ishtirokchi-davlatlar mamlakatning siyosiy va jamoat hayotida xotin-qizlar kamsitilishiga barham berish yuzasidan barcha tegishli choralarni ko'radilar, jumladan, ayollarga erkaklar bilan teng shartoitlar asosida quyidagi huquqlarni ta'minlaydilar:

- a) barcha saylovlar va ommaviy referendumlarda ovoz berish va ommaviy saylanadigan organlarga saylanish;
- b) davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda qatnashish hamda davlat lavozimlarini egallash, shuningdek, davlat boshqaruvining barcha bo'g'inlarida davlat vazifalarini amalga oshirish;
- c) mamlakatning ijtimoiy va siyosiy hayot muammolari bilan shug'ullanadigan hukumatga qarashli bo'lmagan tashkilotlar va uyushmalarning faoliyatida qatnashish.

8-modda

Ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlarning erkaklar bilan tenglik asosida va hech qanday kamsitishsiz xalqaro miqiyosda o'z hukumatlari nomidan vakillik qilish va xalqaro tashkilotlar ishida qatnashish imkoniyatlarini ta'minlash maqsadida barcha tegishli choralarni ko'radilar.

9-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar fuqarolikni qabul qilish, uni o'zgartirish yoki saqlab qolishda ayollarga erkaklar bilan teng huquqlarni beradi. Ular, jumladan, chet el kishisiga turmushga chiqqanda ham, turmushga chiqayotgan vaqtda turmush o'rtog'ining fuqaroligi o'zgarganda ham ayolning fuqaroligi o'z-o'zidan o'zgarishiga olib ketmaydi, uni fuqaroligi bo'lmagan shaxsga aylantirmaydi va erining fuqaroligini qabul qilishga majbur eta olmaydi.

2. Ishtirokchi-davlatlar ayollarga o'z farzandlarining fuqaroligiga nisbatan erkaklar bilan teng huquqlar beradi.

Pekin deklaratsiyasi⁴⁵

(Xotin-qizlar maqomi bo'yicha To'rtinchi butunjahon konferensiyasi,
Pekin, 1995-yil 4-15-sentyabr)

1. Biz, ayollar maqomi bo'yicha To'rtinchi butunjahon konferensiyasida ishtirok etuvchi hukumatlar,
2. Bu erda, Pekinda, 1995-yilning sentyabr oyida, Birlashgan Millatlar tashkilotining ellik yilligi munosabati bilan yig'ilganlar,

Shunga ishonamizki;

13. Xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish va ularning jamiyat hayotining barcha sohalarida teng huquqlilik asosida har tomonlama ishtirok etishi, shu jumladan qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etish va hokimiyatga ega bo'lish tenglik, taraqqiyot va tinchlik maqsadlariga erishish uchun muhimdir;

14. Xotin-qizlar huquqlari inson huquqidir;

15. Teng huquqlar, imkoniyatlarva resurslardan foydalanish, erkaklar va ayollar o'rtasida oilaviy majburiyatlarni teng taqsimlash va ular o'rtasidagi uyg'un hamkorlik ularning farovonligi va oilalarining farovonligi va demokratiyani mustahkamlash uchun muhimdir;

⁴⁵ https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/womdecl.shtml

Biz quyidagilarga qat'iy qaror qildik:

23. Xotin-qizlarga barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklardan to'liq foydalanish va ushbu huquq va erkinliklarning buzilishiga qarshi samarali choralar ko'rish imkoniyatini berish;
24. Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish va erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglikka erishish yo'lidagi barcha to'siqlarni bartaraf etish va ayollarning ahvolini yaxshilash va ularning huquqlarini kengaytirish bo'yicha barcha zarur choralarni ko'rish;
25. Tenglikka erishish uchun barcha sa'y-harakatlarda erkaklarning har tomonlama ishtirok etishiga erishish;

Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya⁴⁶

(Bosh Assambleyaning 2006-yil 13-dekabrda 61/106-sonli qarori bilan qabul qilingan)

6-modda. Nogiron ayollar

1. Ishtirokchi-davlatlar nogiron xotin-qizlar bir nechta kamsitishlarga duchor bo'lishganini e'tirof etadilar va shu munosabat bilan ulartomonidan barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklarning to'liq va teng amalga oshirilishini ta'minlash uchun choralar ko'rilmoqda.
2. Ishtirokchi-davlatlar ushbu Konvensiyada mustahkamlangan inson huquqlari va asosiy erkinliklarning amalga oshirilishi va amalga oshirilishini kafolatlash uchun ayollarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, ularning ahvolini yaxshilash va imkoniyatlarini kengaytirish uchun barcha tegishli choralarni ko'rmoqda.

29-modda. Siyosiy va ijtimoiy hayotda ishtirok etish

Ishtirokchi-davlatlar nogironlarga siyosiy huquqlar va ulardan boshqalar bilan teng ravishda foydalanish imkoniyatini kafolatlaydi va majburiyatlarga ega bo'ladi:

a) nogironlarning bevosita yoki erkin tanlangan vakillar orqali, siyosiy va ijtimoiy hayotda boshqalar bilan bir qatorda, ovoz berish va saylanish huquqiga ega bo'lgan, jumladan, samarali va har tomonlama ishtirok etishi mumkinligini ta'minlash.:

I) ovoz berish tartib-qoidalari, xonalari va materiallarini to'g'ri, qulay va tushunish va ulardan foydalanish osonligini ta'minlash;

II) nogironlarning saylovda yashirin ovoz berishda ishtirok etish huquqini himoya qilish va davlat referendumlarini qo'rqitish va saylovga o'z nomzodlarini ko'rsatish, lavozimlarni haqiqiy egallash va davlat hokimiyatining barcha darajalarida barcha davlat funktsiyalarini bajarish — bu tegishli bo'lgan yordamchi va yangi texnologiyalardan foydalanishga yordam beradi;

III) nogironlarni saylovchilar sifatida erkin ifodalashni kafolatlash va shu maqsadda — kerak bo'lganda qoniqish, ularni ovoz berish bilan yordam berish uchun harqandayshaxs tomonidan ularga murojaat qilish;

⁴⁶ https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/disability.shtml

b) nogironlar davlat ishlarini kamsitishsiz va boshqalar bilan teng ravishda samarali va har tomonlama boshqarishda ishtirok etishlari mumkin bo'lgan muhitni yaratishga faol hissa qo'shish va ularni davlat ishlarida, shu jumladan:

i) faoliyati mamlakatning davlat va siyosiy hayoti, jumladan, siyosiy partiyalar faoliyati va ularni boshqarish bilan bog'liq nohukumat tashkilotlari va uyushmalarida ishtirok etish;

ii) nogironlar tashkilotlarini tashkil etish va nogironlarni xalqaro, milliy, mintaqaviy va mahalliy darajalarda vakillik qilish uchun ularga kirish.





Schweizerische Eidgenossenschaft
Confédération suisse
Confederazione Svizzera
Confederaziun svizra

**Swiss Agency for Development
and Cooperation SDC**



Bu uslubiy qo'llanma Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Siyosiy va tinchlik ishlari bo'limi va Shveysariyaning O'zbekistondagi elchixonasining yordami bilan tayyorlandi.
Bu nashrda keltirilgan fikrlar muallifga (mualliflarga) tegishli bo'lib, ular BMTTD va unga hamkor tashkilotlarining nuqtai nazarini aks ettirmasligi mumkin.